

2021-yil

2020 - 2021 – O'QUV YILIDA O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING
9 - SINF O'QUVCHILARI UCHUN TARIX FANIDAN MUSTAQIL
SHUG'ULLANISH UCHUN

IMTIHON JAVOBLARI

TARIX

9 - SINF

Tarix 9-sinf

1-BILET

1. Qoraxoniylar davlati.

Sulolaning kelib chiqishi: Qoraxoniylar tarixining eng yirik va umume'tirof etilgan mutaxassisi B.Kochnev ta'kidlaganidek, Qoraxoniylar o'zlarini afsonaviy Turon shohi - Afrosiyob avlodlari qatoriga qo'shib, o'zlarining sulolasini "al-Afrosiyob" - Afrosiyob avlodi deb atashgan, yozma manbalarida ular Xoniylar yoki Xoqoniylar deb nomlangan. Amerikalik mutaxassis Robert Dankoff Qoraxoniylarning ajdodi Afrosiyobning haqiqiy asl ismi Alp Er Tunga bo'lgan deb taxmin qilgan.

Tashkil topishi: 840 yilda Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida "podshoh yag'ma" yoki "ilakxon" boshchiligidagi Qoraxoniylar davlati tashkil topadi. Bu davlat tarkibiga turli turkiy urug'lar - qorluqlar, chigillar, arg'ular, yag'malar va boshqa xalqlar kirgan bo'lib, ular 960-yilga qadar islom dinini qabul qilganlar.

Qoraxoniylar davlati Movarounnaxrda: Qoraxoniylar davlatining saltanat darajasidagi rivoji va taraqqiyoti 10-asrning 2-yarmiga to'g'ri keladi. Abdulkarim Sotuq Bug'roxon hokimiyatni egallab, o'zini "Qoraxon" deb e'lon qiladi. Bug'roxondan keyingi barcha xonlar ham ushbu unvon bilan ulug'langan. 992-yili elikxon Bug'ra boshchiligidagi Qoraxoniylar qo'shini Movarounnahr hududiga bostirib kiradi. Qoraxoniylar g'alabasiga Bug'raxon bilan Xurosonning somoniy hokimi Abuali Simjur o'rtasida tuzilgan hufyona ittifoq hamda lashkarboshi Foiqning sotqinligi sabab bo'lgan. Natijada qoraxoniylar Buxoroni jangsiz ishg'ol etadilar, amir Nuh esa Chorjo'ya qochishga majbur bo'ladi. Ammo Bug'raxon kasallanib, o'z vatani Koshg'arga ketayotganda vafot etadi. Qoraxoniylar Buxorodan katta o'lja bilan qaytadilar. Qoraxoniylarning yangi yo'l boshchisi bo'lgan elikxon Nasr Buxoroga qayta hujum uyushtiradi. 995-996-yillarda Nuh II Sabuh Tegin madadi bilan qoraxoniylar hujumini daf etadi.

2. Napoleon Bonapartning Yevropa tarixidagi tutgan o'rni haqida fikr bildiring.

Napoleon Bonapart (frans. Napoléon Bonaparte, ital. Napoleone Buonaparte; 1769-yil 15-avgust — 1821-yil 5-may) — fransuz inqilobining oxirgi bosqichlarida va Fransuz inqilobi urushlarida mashhurlikka erishgan fransuz qo'mondoni va siyosiy yetakchisi. Napoleon I, Napoleon Bonapart (1769.15.8, Ayachcho shahri, Korsika o. — 1821.5.5, Muqaddas Yelena o.) — fransuz davlat arbobi va sarkardasi, Fransiya Respublikasining birinchi konsuli (1799—1804), Fransiya imperatori (1804—14 va 1815). 10 yoshida

Fransiyaning Oten kollejiga kirgan, so'ng o'sha 1779 yilda Briyenn harbiy o'quv yurtiga ko'chirilgan. 1784 yil mazkur o'quv yurtini muvaffaqiyatli tamomlab, Parij harbiy maktabiga (1784—85) o'tgan. 1785 yil podporuchik unvonida armiya xizmatini boshlagan. Maxsus, umumiy ilmiy, falsafiy, siyosiy, badiiy adabiyotni o'qib o'rgangan. Ilg'or fransuz ma'rifatparvarlari ruhida tarbiyalangan H.I 1789 yil Buyuk fransuz inqilobini iliq kutib olgan. U inqilob qo'lga kiritgan demokratik yutuqlarni bekorga chiqargan. Ammo, iqtisodiy sohada inqilob samalarini, shu jumladan, mulkni qayta

taqsimlash tadbirini himoya qilgan, sanoat va savdoning rivojlanishiga katta e'tibor bergan. 1800 yil fransuz bankiga asos solgan.

3. "Miniatura" atamasiga izoh bering.

Miniatura (frans. miniature; lot. minium — qizil bo'yoq) — badiiy usullari o'ta nafis bo'lgan kichik hajmli (mo''jaz) tasviriy sanat asarlari. O'rta asr qo'lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan nafis mo''jaz rasmlar, shuningdek, suyak, pergament, mag'zi soxta (toshqog'oz), metall, chinni, ba'zan maishiy buyumlar (tamakidon, soat, uzuk va boshqalar)ga ishlangan kichik hajmdagi rangtasvirga ham M. atamasi qo'llanadi

2-BILET

1. Ilk o'rta asrlardagi Xorazm va Xioniylar davlatini taqqoslang.

1153 yilda sodir bo'lgan o'g'uzlar isyoni bu sohada biroz turg'unlikka olib keldi. 1157 yilda Sulton Sanjar vafot etganlaridan so'ng to Xorazmshohlar 1197 yilda Iroq saljuqiylari davlatini tugatgunlarigacha bo'lgan davr ichida g'uriy va qoraxitoylarga qarshi olib borgan urushlari Xuroson va Xorazm shaharlarining moddiy jihatdan zarar ko'rishlariga sabab bo'ldi. Biroq, shunga qaramay, XII asrning ikkinchi yarmida ham ilm-fan va adabiyot rivojlandi. Xususan, Jaloliddin davriga qadar, ya'ni 1220 yilgachayoq Xorazmshohlar poytaxti Gurganj moddiy jihatdan nihoyatda gullab-yashnagani singari, ilm-fan va san'at markazi sifatida ham Xurosonning buyuk shaharlarini ancha ortda qoldirib ketdi.

Sulton Sanjarning poytaxti bo'lgani uchun gullab-yashnagan Marv Xorazmshohlar davrida ham o'z mavqeini saqlab qoldi. Biroq, mo'g'ul istilosi oqibatida bu shahar tanazzulga yuz tutib, orqada qoldi. Mo'g'ul istilosidan biroz oldin bu erdan chiqib ketgan Yoqut Hamaviy shaharda o'sha vaqtda o'nta kutubxona bo'lganligi to'g'risida yozgan edi. Jome masjidi kutubxonasida 12 ming jild kitob bo'lgan. Shahardagi barcha kutubxonalardan foydalangani va shu tufayligina asarlarini yoza olganini e'tirof etgan. Yoqut Marvda lozim bo'lgan asar nusxalari ham ko'p bo'lganligini, asosiy e'tibori bilan dunyoning biror shahridagi kutubxona Marv bilan bellasha olmasligini qayd qilgan edi. Bu Xorazmshohlar davrida Mavrning buyuk bir madaniyat markaziga aylanganligidan dalolat beradi.

V asr o'rtalarida O'rta Osiyoga Ettisuv va Sharqiy Turkistondan ko'chmanchi chorvador xion nomli qabilalarning hujumi boshlanadi.

Xioniylar milodiy 353-yilda o'z hukmdori Grumbat boshchiligida Sug'dga bostirib kiradilar. So'ngra ular Eronda tashkil topgan va tobora kuchayib borayotgan Sosoniylar davlati bilan to'qnashadilar. Dastlabki janglardayoq sosoniylar shohi Shopur II (309-379) xioniylardan yengiladi. So'ngra o'zaro sulhga kelishilib, hatto ular o'rtasida ittifoqlik ipi bog'lanadi. O'rtadagi ittifoq goh buzilib, goh tiklanib turadi.

Nihoyat, IV asrning 70-yillarida o'rta Osiyoda xioniylar hukmronligi o'rnatildi. Sirdaryo bo'ylaridan to Amudaryo havzasigacha cho'zilgan keng maydonda

xioniylarning kuchli davlati qaror topadi. Bu davlat 120 yildan oshiqroq hukmdorlik qiladi. Kidariylar davlati

V asrning 20-yillarida Sharqdan Sirdaryo va Orol boʻylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga yana bir koʻchmanchi chorvador aholi - toxarlar kirib keladi. Toxarlar kushonlarning avlodlaridan boʻlib, Kidar ismli hukmdor ularga yoʻlboshchi edi. Shuning uchun ular kidariylar nomi bilan tilga olinadi. Tez orada kidariylar Amudaryo havzasi hamda gʻarbiy va janubiy Sugʻd yerlarini ishgʻol etib, xioniylar davlatining janubiy qismida oʻz hukmronligini oʻrnatganlar. Balx shahri esa bu yangi davlatning poytaxtiga aylantirilgan.

Aftidan, kidariylar xioniylar bilan ittifoqchi sifatida harakat qilgan va tajovuzlarini janubga tomon kengaytirishga intilgan. V asrning 30-50-yillarida kidariylar bilan sosoniylar oʻrtasida ziddiyat tobora kuchayib, ular bir-biriga dushman boʻlib qolgan. Bu ikki davlat oʻrtasida 456-yilda boʻlib oʻtgan navbatdagi toʻqnashuvda sosoniylardan qaqshatqich zarbaga uchragan kidariylar oʻzini qayta oʻnglab ololmaydi. Buning ustiga tez orada kidariylar shimoldan janubga tomon siljigan yana bir koʻchmanchi chorvador aholi - eftaliylar bilan toʻqnashadilar. Natijada, kidariylar Oʻrta Osiyoni tark etib, janubga - Shimoliy Hindistonga chekinadilar. U yerlarda 75 yil hukmronlik qiladilar.

2. Amir Temurning dunyo tarixidagi tutgan oʻrni haqida mulohaza yuriting.

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda qadimgi kesh viloyatidagi(xozirgi shahrisabz)yakkabogʻ tumanida(Xoʻja ilgʻor qishlogʻida) tugʻuladi. Uning toʻliq ismi Amir Temuribn Amir Taragʻay ibn Amir Barqul. Onasi Takinaxotun. Shayx Shamsiddin kulolTemurbekning piri boʻlgan.Amir temur mohir chavandoz va jangchi boʻlgan. AmirTemurning asosiy maqsadi markazlashgan davlat tuzish edi. Bu maqsadga 1370-yil 11-aprelda erishadi ungacha esa 1365-yil tarixda mshxur boʻlgan loy jangidaIlyosxoʻjaustidan gʻalaba qozonadi. Amir Temur birin ketin hududlarni qoʻlga kirita boshlaydi.Jumladan sharqiy tirkiston tomon bir necha martayurish qiladi. Mugʻullarga zarba berib Fargʻona, Oʻror, Yassi va Sayramni bosib oladi.Hisor Badaxshon, Qunduzni hamegallaydi, 1381-yil Hirot, Seiston, Mazondaronni egallaydi. Shundan soʻng Saraxs, Jom,qavsiya, Sabzavor

shaharlarini jangsiz egallaydi. Xorazmga 5 marta yurish qilib 1382-yilda egallaydi.Amir Temur tarixda 3 yillik (1386-1388) 5 yillik (1392-1396) va 7 yillik (1399-1404) yurishlarni amalga oshiradi. Bu yurishlar davomida Eron,Ozarbayjon,Iroq, Suriya, Kavkaz kabi hududlarni egallaydi. U 1402-yil Usmoniylar imperiyasihukmdori Boyazid bilan Anqara jangida toʻqnashadi va gʻalaba qozonib, EvropaniUsmoniylardan asrab qolib, Yevropa haloskori nomiga sazovor boʻladi. Amir Temur 1405-yil 18-fevralda Xitoyga boʻlgan yurishida halok boʻladi.

3. “Oligarxiya” atamasiga izoh bering.

Oligarxiya (yun. oligarchia — ozchilik hokimiyati) — davlat boshqaruv shakli; unda siyosiy va iqtisodiy hukmronlik aristokratlar yoki boylarning kichik guruhi tomonidan amalga oshiriladi

3-BILET

1. Somoniylar va Gʻaznaviylar davlatini oʻzaro taqqoslang.

Arab xalifasi Horun ar-Rashid vafotidan soʻng uning oʻgʻillari Maʼmun va Amin oʻrtasida taxt uchun boʻlgan kurashda Maʼmunga yordam berganliklari uchun Somonxudotning nabiralari ayrim shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlanadilar. Chunonchi, Nuhga Samarqand, Ahmadga Fargʻona, Yahyoga Shosh va Ustrushona, Ilyosga Hirot tegadi. Buning evaziga aka-uka Somoniylar Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta mablagʻni tohiriylar orqali xalifa xazinasiga yuborib turadilar. 9-asrda Movarounnahrning siyosiy hayotida oʻzgarishlar yuz berib, yurtga avval Nuh, soʻngra Ahmad boshchilik qiladi. Har biri hukmronligi davrida oʻz nomlaridan chaqa tangalar zarb ettiradilar. Ahmad vafotidan (865) keyin uning oʻgʻli Nasr Samarqandni markazga aylantiradi. U Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini koʻradi. 9-asrning oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tassarufiga oʻtadi. Nasr butun Movarounnahrning hukmdoriga aylanadi va kumush dirham zarb etadi. Koʻp oʻtmay aka-uka Nasr va Ismoil oʻrtasida toj-taxt uchun kurash boshlanadi. Unda Ismoil gʻolib chiqadi. Ismoil Somoniy 888-yilda butun Movarounnahrni oʻz qoʻl ostiga birlashtirdi va mustahkam davlat tuzishga intildi. Shimoli sharqiy hududlarga yurish qiladi va 893-yilda Taroz shahrini zabt etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba beradi. Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishishi Arab xalifalariga yoqmas edi. Shu boisdan xalifalik safforiylar bilan somoniylarni toʻqnashtirishga va ularning har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda oʻz taʼsirini qayta tiklashga qaror qiladi. Xalifa Muʼtazid safforiylar hukmdori Amr ibn Laysga Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gijgijlaydi. Natijada 900-yilda ular oʻrtasida urush boshlanib, Ismoilning gʻalabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qoʻl ostiga oʻtadi. Noilojlikda xalifa Ismoilga hukmdorlik yorligʻini yuborishga majbur boʻladi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahr va Xurosonni oʻz qoʻl ostida birlashtiradi va Buxoro shahri bu ikki davlatning poytaxtiga aylanadi.

Gʻaznaviylar — Xuroson, Shimoliy Hindiston hamda qisman Movarounnahr va Xorazmda hukmronlik qilgan turkiy sulola (962—1186). Gʻaznaviylar davlatini boshqargan. Sulolaga somoniylar lashkarboshisi Attegin asos solgan. Sulola nomi davlat poytaxti Gʻazna shahridan olingan.

Somoniylar davrida mamlakatning siyosiy hayoti va harbiy qoʻshinda turk gʻulomlari katta rol oʻynagan. Somoniy amirlari koʻplab turk gʻulomlarini saltanatga qilgan xizmatlari evaziga siylab, ularni turli viloyatlarga noib qilib tayinlashgan. Iqtidorli lashkarboshi Alptegin Gʻazna va Kobul viloyatlarini 962yildan mustaqil boshqarishga intilgan. Alpteginning oʻlimi (963)dan soʻng oʻgʻli Ishoq va gʻulomi Bilgategin,

shuningdek, Piritegin hukmronlik qilgan davr (963—977 yillar)da G‘aznaviylar mulki kengaymay turgan. Alpteginning kuyovi va sobiq g‘ulomi Sabuktegin hukmronligi davrida (977—997) esa G‘aznaviylar sulolasi mustaqil siyosiy kuch sifatida Somoniylar tomonidan e‘tirof etilgan. Sulola shuhratini Sabukteginning o‘g‘li Mahmud G‘aznaviy eng yuqori cho‘qqiga ko‘targan. Sulola hukmdorlari avval amir, so‘ngra sulton (Mahmud G‘aznaviydan boshlab) va shoh (Bahromshohdan boshlab) deb atalganlar. G‘aznaviylar hukmdorlari quyidagilardan iborat bo‘lgan: Alptegin (962-963), Ishoq (963-966), Bilgategin (966—972), Piritegin (972— 977), Sabuktegin (977—997), Ismoil (997-998), Mahmud G‘aznaviy (998-1030), Muhammad (1030), Mas‘ud G‘aznaviy (1030-41), Mavdud (1041-48), Mas‘ud II (1048), Ali Abul Hasan (1048-49), Abdur Rashid (1049-53). To‘g‘rul (1053), Farruxzod (1053-59), Ibrohim (1059-99), Mas‘ud III (1099-1114), Sherzod (1114-15), Arslon (1115-18), Bahromshoh (1118-52), Xusravshoh (1152—60), Xusrav Malik (1160—86).

2. Buyuk Karlning harbiy yurishlari.

Buyuk Karl (742.2.4814.28.1) -franklar qiroli (768 yildan), imperator (800-yildan), karolinglar sulolasi uning nomi bilan atalgan. Uning bosqinchilik urushlari (773—774 yillarda Italiyadagi Langobard qirolligiga, 772—804 yillarda sakslar yeri va boshqalarga qarshi) natijasida katta imperiya vujudga kelgan. B. K.ning olib borgan siyosati (cherkovga homiylik qilish, sud va harbiy islohotlar va boshqalar) G‘arbiy Yevropada yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida muhim bosqich bo‘lgan. B.K.ning imperiyasi uning vafotidan so‘ng bir oz vaqt o‘tgach, parchalanib ketgan.

Buyuk Karl 742 yili tug‘ilgan u sulola asoschisi Pipin Pakananing o‘g‘li bo‘lib, Franklar qirolligini 46 yil boshqargan. —Buyuk|| nomi tarixchilar tomonidan 53 marotaba harbiy yurishlar qilganligi sabab berilgan. U yirik saltanat tuzadi. Karl haqida ko‘plab hikoyalar, asarlar, afsonalar, rivoyatlar va qo‘shiqalar yaratilgan. Uning ismidan —koroll ya‘ni —qiroll unvoni kelib chiqqan. Buyuk Karl 773-yili german qabilasi langobardlarga qarshi jang boshlaydi, langobardlar

qiroli Dezideriy mag‘lub etiladi. Karlning jiyani Roland Arab xalifaligi istilo qilgan Ispaniyaga qarshi jangda halok bo‘ladi.

3. “Kartel” atamasiga izoh bering.

Kartel (italyancha — qog‘oz, hujjat) — bir tarmoqdagi mustaqil kompaniyalar, firmalarning ishlab chiqarish va sotishning umumiy hajmlari, narxlari, sotish bozorlari, har bir ishtirokchining ulushiva boshqalar to‘g‘risidagi bitim asosida tashkil etilgan tuzilma.

4-BILET

1. G‘arbiy Turk va Sharqiy Turk xoqonligini o‘zaro taqqoslang.

Gʻarbiy Turk xoqonligi - Qora dengiz va Dondan Tyon-Shon va shimoliy-sharqiy Hindiston sharqiy shoxlariga qadar joylashgan dastlabki oʻrta asr turkiy davlati (603-704).

Xoqonlikning gʻarbiy mulki janubiy-sharqiy Evropaning dashtlariga etib bordi. Davlatning uzagini Ettisuv viloyati tashkill qilgan. Uni Ashina sulolasidan boʻlgan kagonlar boshqargan. Xazar xoqonligi undan ajralib chiqdi.

Xoqonlik oʻzining qudratining eng yuqori choʻqqisiga Sheguy xoqon (610-618 yillarda) va uning ukasi Tun-yobgʻu-xoqon (618-630 yillarda) davrida erishgan. Toxariston va Afgʻonistonga yangi yurishlar davlat chegaralarini Hindistonning shimoli-gʻarbiy qismigacha kengaytirdi. Tun-yobgʻu xoqon maʼmuriy islohotni amalga oshirdi va oʻlpon yigʻishni nazorat qilish va nazorat qilish uchun mintaqadagi oʻz vakillari - tudunlarni tayinladi. Tun yobgʻu xoqon va Sheguy xoqon (610-618) davrida Xoqonlik Oltoyda, Tarim daryosi havzasida va Amudaryo boʻyida chegaralarni tikladi. Suyab va Ming-Buloq Gʻarbiy Turk xoqonlarining qarorgohiga aylandi. Vizantiya imperatori Tun-yobgʻu bilan ittifoqda xoqonni 626 yilda Sosoniylarga qarshi urush boshladi. 626 yilda turkiy qoʻshinlar Tiflisni egallab oldilar. Biroq, Vizantiya va Eron oʻrtasida tinchlik shartnomasining tuzilishi Tun-yobgʻu xoqonni harbiy harakatlarni toʻxtatishga majbur qildi. 630 yilda Ton-Yobgʻu xoqon amakisi Sibir Xon tomonidan uyushtirilgan fitna natijasida oʻldirildi. Tez orada u ham oʻldirildi. 630 yilda boshlangan taxt uchun kurash uzoq davom etgan urushga aylandi.

580-yillarga kelib xoqonlikda ichki nizolar, taxt talashuvlar avj oladi. Bu ishga Xitoyning Suy sulolasi ham aralashadi. Shundan soʻng xoqonlik bir muddat Oltoy togʻlarining sharqidan to Uzoq Sharqqacha boʻlgan hududni, yaʼni Jan. Sibir, Urxun havzalari (Moʻgʻuliston), Shim. Xitoy hududlarini oʻz ichiga oluvchi Sharqiy Turk xoqonligi va Oltoy togʻlarining gʻarbidagi xoqonlikka qaram oʻlkalarni oʻz ichiga oluvchi markazi Yettisuv boʻlgan Gʻarbiy Turk xoqonligi ga boʻlinib ketadi.

Markazi Oʻtukan vodiysi (Moʻgʻuliston) boʻlgan Sharqiy Turk xoqonligi Shibi xoqon (609—619) davrida Xitoy (Suy) imperiyasiga qarshi jang olib boradi. U 615 yilda Xitoyga yurish qilib Yaymin (Ordos) viloyatida imperator Yandini

qurshovga oladi. Yaymindagi 41 qalʼadan 39 tasi Turk xoqonligi qoʻliga oʻtadi. 618 yilda Suy sulolasini agʻdarib, uning oʻrnini egallagan Tan sulolasining ishlariga ham Shibi xoqon aralashadi. U bu paytgacha sharkda kidan va shivey qabilalarini, Jan.Gʻarbda Tuguxun (Togon) davlati hamda Turfon oʻlkasini boʻysundirgach, Xuanxe daryosini kechib oʻtib, Xitoy hududiga kirgan vaqtda vafot etadi. TaxtgaElxoqon (xitoy manbalarida Xyelixan; 620—630) oʻtiradi va 10 yil davomida, asosan, Xitoy bilan kurash olib boradi. 2 marta, 624—626 yillarda poytaxt Chananni qurshab oladi. Uning oʻlimidan soʻng Sharqiy Turk xoqonligi 50 yilga yaqin Xitoyga karam boʻlib qoladi. Oʻz davrida "Oʻn Oʻq xoqonligi" deb yuritilgan Gʻarbiy Turk xoqonligi Istaming oʻgʻli Tardu xoqon (576—603) Sosoniylar Eroniga qarshi janglar olib borib, gʻarbda oʻz hokimiyatini kuchaytirdi. Uning oʻgʻli Sheguy xoqon (610—

618) davrida xoqonlik qoʻshinlari jan.gʻarbiy hududlarda faol harakat yurita boshlaydi. U Eronning shim.sharqiy viloyatlariga xujum uyushtirib, sosoniylar ustidan yirik gʻalabaga erishadi va Isfahon, Ray kabi shaharlarni qoʻlga kiritadi. Uning inisi Tun yabgʻu (Tunshexu; 618—630) xoqonlikning gʻarbdagi nufuzini yanada mustahkamlaydi.

U hukmronlik qilgan davrda Turk xoqonligi ning chegarasi g'arb va jan.g'arbda, Jan.Sharqiy Yevropa dashtlari, Kavkaz, Volgabo'yi, Gurgon, Marv, Hind daryosining yuqori havzalari, Shim. Hindiston va Afg'onistonning aksariyat viloyatlarini o'z ichiga olardi. Uning shad unvonli o'g'li boshchiligidagi xoqonlik qo'shinlari Vizantiya imperatori Irakliy bilan birgalikda 627—628 yillarda Jan. Kavkazga safar uyushtiradi va bu yerdagi sosoniylar qo'shinini yengib, Tbilisi shahrini qo'lga kiritadi. Tun yabg'u g'arbiy hududlarda xrkimiyatni mustahkamlash maqsadida qarorgohini Shosh vohasining shimolidagi Mingbuloq (xitoycha Syantsyuan) mavzesiga ko'chiradi va boshqaruvda islohotlar o'tkazib qaram o'lkalarga turkiy tudun va eltabar unvonli vakillar jo'natadi.

2. Pyotr I ning Rossiya tarixidagi tutgan o'rni haqida fikr bildiring.

Pyotr I [1672.30.5(9.6), Moskva – 1725.28.1(8.2), Peterburg] – rus podshosi (1682-yildan), Rossiyaning 1-imperatori (1721-yildan). Podsho Aleksey Mixaylovich (1629–76)ning kichik o'g'li. Rossiyaning davlat, harbiy va madaniyat arbobi, diplomat. Davlatni boshqarishda bir necha islohotlar o'tkazgan (senat, kollegiyalar, oliy davlat nazorati va siyosiy qidiruv organlari tuzilgan; cherkov davlatga bo'ysundirilgan; mamlakat gubernalarga bo'lingan; yangi poytaxt – Sankt-Peterburg qurilgan). Rossiyaning G'arbiy Yevropadagi ilg'or davlatlardan ortda qolganligiga barham berish uchun sanoat va savdo sohasida merkantilizm siyosati o'tkazgan (manufakturalar, metallurgiya, konchilik zavodlari, kemasozlik korxonalari, pristanlar, kanallar qurishga rahnamolik qilgan). 1695–96-yillarda Azov yurishlarida, 1700–21-yillarda Shimoliy urush va boshqalarda armiyani boshqargan, Noteburgni olishda (1702),

Lesnaya daryosi (1708) va Poltava jangi (1709)da qo'shnlarga qo'mondon bo'lgan. Flot va muntazam armiya tuzishga rahbarlik qilgan. Mutlaq hokimiyat tizimining yirik mafkurachisi sifatida dvoryanlarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash va siyosiy mavqeini mustahkamlashga yordam bergan. Pyotr I tashabbusi bilan bir qancha o'quv yurtlari, FA ochilgan, diniy-slavyan alifbosi o'rniga grajdan alifbosi qabul qilingan va h.k. Pyotr I islohatlari moddiy imkoniyatlar va odam kuchini qattiq ekspluatatsiya qilish, xalq ommasini ezish (jon solig'i va boshqalar) hisobiga o'tkazilganki, natijada, bunga qarshi qo'zg'olonlar (Streletslar, 1698; Astraxan, 1705–06; Bulavin, 1707–09 va boshqalar) bo'lib hukumat tomonidan ayovsiz bostirilgan..

3. “Demobilizatsiya” atamasiga izoh bering.

Demobilizatsiya — harbiy xizmatdan bo'shatish.

5-BILET

1. Qadimgi Xorazm davlati.

U haqdagi ilk ma'lumotlar "Avesto", birinchi Doroning Bihistun tosh bitiklari, qadimgi yunon mualliflari, arab geograflarining asarlarida uchraydi. "Avesto"ning "Yasht" qismida Xorazm "Ming irmoqli daryo", "Ko'llar va o'tloqdarga boy o'lka" sifatida madh etiladi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday yozadi: "Xorazmliklar Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar. Bu Iskandardan 980 yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmga podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari (ustidan) hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan 92 yil keyin bo'ldi".

Demak, 3 ming yil oldin ham Xorazmda turkiy qabilalar yashagan va davlat tizimi bo'lgan. Miloddan avvalgi ming yillik boshlariga aloqador "Amirobod madaniyati", quyi Amudaryo havzasidagi sun'iy sug'orish inshootlari tizimi (Gerodot qadimda Oks (Amu) daryosi bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish inshootlari barpo etilganligini yozadi) hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar - Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Jonbosqal'a va boshqalar Xorazm vohasidagi qadimiy davlatchilik belgilaridir.

Xorazm tarixini chuqur o'rgangan mashhur rus olimi S.P.Tolstov "Qadimgi Xorazm" kitobida antik Xorazm tarixini to'rt davrga bo'ladi:

1. Uy-joy devorlari bo'lgan shahriston madaniyati (miloddan avvalgi VI-IV asrlar)
2. Qanqa (Qang) madaniyati (miloddan avvalgi IV asr - milodiy I asr)
3. Kushonlar madaniyati (milodiy II – II asrlar)
4. Kushon-Afrig' o'tish madaniyati (milodiy Sh-V asrlar)

Bu davrlarga oid Amudaryoning o'ng sohilida 250 dan ziyod, so'l sohilida 60 ta qadimiy shahar va qishloqlar o'rni topilgan. Qanqaqal'a, Qo'shqal'a, Tuproqqal'a, Jingilja, Toshxirmon singari qal'a va istehkomlar o'rni bunga misol bo'la oladi.

Xitoyning Tan sulolasi davrida (milodiy VII-X asrlar) Xorazmda asosan turkiy qabilalar yashagan. Tanshu solnomasida shunday deyiladi: "Barcha turk elatlari ichida ho'kiz qo'shilgan arava faqat shu erda (Xorazm) uchraydi. Bu aravalarda savdogarlar turli viloyat va elatlarni aylanib, savdo qilib yuradilar." Bu o'rinda gap Xorazmning savdo-sotiq bilan kun kechiruvchi o'troq aholisi ustida ketyapti. Shu bilan birga Xorazm vohasiga yaqin cho'l va dashtlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador turkiy qabilalar yashagan.

Eron Axomaniylari shohi Kayxusrav (Kir, Kurush) (miloddan avvalgi 558-530 y.) Xorazm va unga tutash hududlarni bosib olgan. Xorazm miloddan avvalgi 6-5 asrlarda Axomaniylar davlatining 16-satrapligi (viloyati) tarkibiga kirgan. Lekin ko'chmanchi Sak (Massagetlar) qabilasi ustiga hujum qilganida Kayxusrav malika To'marisdan engilib, halok bo'lgan. Xorazm o'z mustaqilligini tiklagan. Miloddan avvalgi III asrda esa u Qang davlati tarkibida bo'lgan.

Xorazm tarixining to'rtinchi afrig'iylar sulolasi asoschisi Afrig'gacha (305 y.) bo'lgan davri haqida ma'lumotlar kam. Faqat qadimda Kayxusrav (mil.av. 1200-1140 y.), Saksafar (mil.av. 519- 517 y.), Farasman (mil.av. 329-320 y.), Xusrav (mil. av. 320 y.) singari xorazmshohlar bo'lganligi, Farasman miloddan avvalgi 328 yilning bahorida O'rta Osiyoga

bostirib kirgan makedoniyali Aleksandr (Iskandar) huzuriga muzokara uchun sovg'a-salomlar bilan kelganligi tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan.

Abu Rayhon Beruniy afrig'iyalar sulolasiga mansub xorazmshohlardan 22 tasining nomini keltirgan. Xorazm davlatining poytaxti dastlab Tuproqqal'a, 305 yildan keyin esa Kot (Kos) shahri bo'lgan. Miloddan avvalgi 4-3 asrlarda Xorazm iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalib, yirik sug'orish kanallari, yangi shahar va qal'alar barpo etilgan. Hunarmandchilik, san'at, ichki va tashqi savdo keng rivoj topgan. Milodiy IV-VIII asrlarda Xorazm yangi yuksalishni boshdan kechirdi. Burgutqal'a, Uyqal'a, Qumbosganqal'a kabi inshootlar ana shu davrlarda qurilgan.

Xorazmning Etil (Volga) bo'yidan Markaziy Osiyo orqali Mo'g'uliston va Xitoyga hamda Eronga boriladigan savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi uning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etgan.

2. Ivan Grozniyning Rossiya tarixidagi o'rni haqida fikr bildiring.

Ivan Grozniy (1533—1584) davrida Rossiyaning mavqeyi kuchaya bordi. Ivan Grozniy davrida Qozon xonligi (1552), Hojitarxon xonligi (1556), Volga bo'ylariva G'arbiy Sibir hududlari Rossiya tomonidan bosib olingan edi. Bu hoi Rossiyaga savdo yo'llarini nazorat qilish imkonini berdi. Volga atrofidagi viloyatlarda savdo-sotiq ishlarini olib borish Buxoro xonligidan kelgan savdogarlar uchun ancha qulay edi. Ularga eng yaqin qo'shni mamlakat Rossiyabo'lib qolgandi. Bu hoi ko'p jihatdan Qozon tatarlari hamda boshqirdlarga din va til yaqinligi bilan izohlanar edi. Shuning uchun ham Abdullaxon II tomonidan 1557—1558- yillarda Moskvaga elchilaryuborilgan. Elchilar Astraxan orqali Moskvaga borib, Ivan

Grozniy huzurida bo'ladilar. Ular o'z xonlarinomidan savdogarlarning Volga bo'ylab erkin o'tishlariga ijozat so'raydilar. Elchilar Moskvadan juda ko'p o'qdori, ov quslari va matolar bilan qaytgan.

3. "Parij Kommunasiga" atamasiga izoh bering.

Parij Kommuna – Fransiyada tuzilgan kunio'zini o'zi boshqarish organi.

6-BILET

1. Qadimgi Mesopotamiya hamda yunon sivilizatsiyalarini taqqoslang.

Mesopotamiya (yun. μέσος (mezos) - "orasi", "o'rtasi" va ποταμός (potamos) - "daryo", ya'ni "ikki daryo oralig'i") Tigr va Yevfrat daryolari orasidagi mintaqa bo'lib, asosan hozirgi Iroq hamda shimoli-sharqiy Suriya, janubi-sharqiy Turkiya va g'arbiy Eron hududlariga mos keladi.

Mesopotamiya (Ikki daryo oralig'i) — Dajla va Furot daryolarining o'rtasi va quyi oqimidagi hudud (G'arbiy Osiyoda). Qad. Sharqning madaniy markazlaridan biri. Miloddan avvalgi 4—3 ming yillikda M. hududida ilk davlatlar (Ur, Uruk, Lagash va boshqalar) vujudga kelgan.[1]

Mesopotamiya baʼzan "tamaddun beshigi" deb ataladi, bunga sabab bu mintaqada Shumer, Akkad, Bobil va Ossuriya saltanatlari boʻlganligidir. Temir asrida Mesopotamiya Yangi Ossuriya va Yangi Bobil imperiyalari, keyinchalik Axamoniylar hukmronligi ostida boʻldi. VII asr Islom istilosigacha Sosoniylar tomonidan boshqarilgan bu hudud istilodan soʻng Iroq degan nom bilan ataladigan boʻldi.

2. Amir Nasrulloxon haqida maʼlumot bering.

Nasrullaxon (1806.1.6 - Buxoro 1860.21.9) — Buxoro amiri (1826 — 1860), mangʻitlarlan. Amir Haydarning oʻgʻli. Otasining hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qilgan. Amir Xaydar vafotidan soʻng hokimiyat uchun kurashlarda akalari amir Husayn (1797— 1826) va amir Umar (1826 yil v.e.)ni oradan koʻtarib, Buxoro taxtiga oʻtiradi (1826). Nasrullaxon oʻz hukmronligi davrida islom shariati koʻrsatmalariga qatʼiy amal qilgan. Nasrullaxon jasur va dovyurak kishi boʻlganligi bois unga "bahodir", "botir" unvonlari berilgan. Nasrullaxon davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida urugʻ va qavm boshliqlari boʻlgan koʻplab amaldorlarni quyi tabaqalardan chiqqan yosh va gʻayratli kishilar bilan almashtirdi. 1837 yilda harbiy sohada islohotlar oʻtkazib, oʻz qoʻshinining jangovar holatini yaxshiladi. Har biri 800 kishidan iborat 50 ta sarbozlar boʻluklari va 250 kishilik toʻpchilar guruhi tashkil qilingan. Muntazam piyoda qoʻshinining soni 40000 kishidan ortiq boʻlgan. Nasrullaxon tomonidan va uning davrida Buxoroda Qozi Hasanxoʻja, Olimjonboy, Eshoni Pir, Mirzo Ubayd, Modorixon, Ismoilxoʻja (1829) Aliy Choʻbin, Mirzo Abdulgʻaffor, Tojiddin madrasalari (1860) qurildi, Xalifa Xudoydod meʼmoriy majmuasining qurilishi yakunlandi. Nasrullaxon Buxoroda dafn etilgan.

3. "Shovinizm" atamasiga izoh bering.

Shovinizm – bir irqning boshqalardan ustunligini daʼvo qiluvchi, millatlar oʻrtasida nizo urugʻini sochuvchi oʻta oʻng, ashaddiy millatchilik.

7-BILET

1. Arab xalifaligi.

Arab xalifaligi (632 – 1258) – Arabiston yarim oroli, Yaqin va Oʻrta Sharq, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Markaziy Osiyo va Kavkazortini oʻz ichiga olgan saltanat.

7 – 8-asrlarda tashkil topgan. Arab Xalifaligi asoschisi paygʻambar Muhammad(sav)ning eng yaqin safdoshi xalifa Abu Bakr – Arablar yuqorida zikr etilgan mamlakatlarni 633–715 yillar orasida bosib olganlar. Bu mamlakatlar asosan "Xula-fo Ar-Rashidin" ("Toʻgʻri yoʻldan boruvchi xalifalar") va umaviylar zamonida fath etildi.. Xalifa Umar davrida (634-644 –yillar) kuchli markazlashgan davlat va jangovar armiya tashkil topadi. Koʻp sonli arab qoʻshinlari oʻz zarbalarini Vizantiya va Eronga qarshi yoʻnaltiradilar. Bir necha oʻn yilliklar mobaynida arablar Suriya, Iroq, Eron, Misr va butun Shimoliy Afrikani istilo qiladilar. Arablar Vizantiyaga kuchli zarba beradilar. Jangari arablar gʻarbga va sharqqa tomon tobora ichkarilab boradilar. Arablar armiyasining asosiy zarbdor kuchini otliq

qo'shinlar tashkil qilardi. VII asr va VIII asrning birinchi yarmi mobaynida ulkan davlat – Arab xalifaligi tashkil topadi. Damashq shahri uning poytaxtiga aylanadi. Lekin Abbosiylar bu ulkan hududni butun saqlab qololmadilar. Ichki ixtiloflar ta'siri ostida Arab Xalifati 8-asrning oxirlaridan boshlab mayda-mayda qismlarga parchalanib keta boshladi: 788 yilda Mag'ribning g'arbiy qismida (hozirgi Marokash) idrisiylar (788 – 985), uning sharqiy qismida (hozirgi Tunis) ag'labiylar (800 – 909) hukmronligi o'rnatildi. Xuroson va Movarounnahrda esa 9 asrning 20-yillaridan boshlab mahalliy sulolalar: Tohiriylar (821 – 873), Safforiylar (867 – 903) va Somoniylar (875 – 999) bosh ko'tarib chiqdilar. Ular Arab Xalifatiga nomigagina tobe bo'lib, aslida mustaqil hukmdor edilar. Arab Xalifati 1258 yilda mo'g'ullar tarafidan tugatildi.

2. Olimxonning Qo'qon xonligi tarixidagi tutgan o'rni haqida fikr bildiring. Amir

Abdulahaddan so'ng Buxoro taxtini uning o'g'li Sayid Olimxon

(1910— 1920) egalladi. Uni 1893-yilda otasi Peterburgga o'qishga jo'natdi.

Buyerda u 3 yil davomida harbiy ishlar va davlat boshqarish asoslarini o'rgandi. Amirlik taxtiga o'tirgan Sayid Olimxon Buxoroda davlat asoslari va diniy tizimni o'zgartirish taraddudida bo'tmadi. Ammo Rossiyadagi voqealar va amirlikning o'zidagi muxolafatchi harakatlar uni chora-tadbirlar ko'rishga va Yosh buxoroliklarning (jadidlar) mamlakatni demokratlashtirish va islohotlar o'tkazish to'g'risidagi talablariga yon berishga majbur qildi.

3. "To'rtlar ittifoqi" atamasiga izoh bering.

To'rtlar ittifoqi — 1915-yil 15-sentabrda Bolgariyaning Germaniya, Avstriya-Vengriya va Turkiya ittifoqiga qo'shilishi natijasida vujudga kelgan ittifoq.

8-BILET

1. Fors podsholigi haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. VI asrda hozirgi Eron hududida Ahamoniylarsulolasiga mansub shohlar asos solgan Fors podsholigivujudga keldi. Ahamoniylar davlati jahondagi eng yirik davlatlardan biri bo'lgan. Hozirgi Eron hududida qadimzamonlarda kassiyalar, elamiylarsingari turli qabilalar yashab keigan. Mil.avv. IX asrda bu mamlakatga midiyaliklar va forslar ko'chib O'rtnashadi. Eron o'zida katta yassitoglikni mujassam etgan mamlakatdir. Lining hududi deyarli hamma tomonidan o'rmon bilan qoplangan tog'lar bilan qurshalgan. Tog'oldivodiylarda aholi dehqonchilik bilan shug'ullangan, dasht mintaqalarida chorvadorlar kun kechirgan. Eron Kichik Osiyo, Mesopotamiya, Kavkazorti, O'rta Osiyo va Hindiston mamlakatlarini bog'lab turgan karvonyo'llari chorrahasida joylashgan.

2. Mirzo Ulug'bekning Temuriylar tarixidagi o'rni haqida fikr bildiring.

Mirzo Ulug'bek (1394—1449) — XV asrda mamlakatda ilm-fan, ayniqsa, astronomiya fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri. Mirzo Ulug'bek — Amir Temurning nabirasi. Temurning harbiy yurishlari paytida Sultoniya (Janubiy

Ozarbayjon)da 1394- yilning 22-martida tug'ilgan. Mirzo Ulug'bekni Amir Temurning o'zi tarbiyalab voyagayetkazgan. Ulug'bek 1409- yildan boshlab 40 yil mobaynida Movarounnahrni mustaqil idoraqildi va uni iqtisodi, fani, madaniyati rivojlangan obod mamlakatga aylantirdi. Mirzo Ulug'bekning buyuk xizmatlaridan biri shu bo'ldiki, u Samarqandda katta Rasadxona qurdirdiva atrofiga yirik olinilami to'plab, sayyoralar va yulduzlarning holati hamda harakatini o'rgandi. Ko'p yillik kuzatishlardan so'ng 1438-yili —Ziji jadidi Ko'ragoniy (—Ko'ragoniy yangijadvali) nomli yirik asar yozdi. Mirzo Ulug'bek tarix va adabiyotni ham yaxshi bilar edi. U Mo'g'uliston va Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixini o'z ichiga olgan —To'rt ulus tarixi degan yirik tarixiy asar yozib qoldirgan. Bu asarning ingizcha va o'zbekcha nashrlari bor. 1993-yil 29-oktabrda YuNESKOning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YuNESKOga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YuNESKO dasturiga kiritildi. 1994-yil oktabrda Parijda Mirzo Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi.

3. "Anarxizm" atamasiga izoh bering.

Anarxizm (yunoncha — hokimiyatsizlik, beboshlik) — alohida birshaxsning xohish-irodasinagina tan olib, har qanday hokimiyat vadvlat tuzumini rad etuvchi ta'limot.

9-BILET

1. Parfiya va Yunon-Baqtriyani o'zaro taqqoslang.

Parfiya, Parfiya podsholigi — miloddan avvalgi taxminan 250 yilda Kaspiy dengizining jan. va jan.-sharqiy tomonida vujudga kelgan kad. davlat. Miloddan avvalgi 1-asr o'rtalarida Mesopotamiyadan Hindistongacha bo'lgan hududni o'ziga bo'ysun-dirgan. P. milodiy 3-asrning 20-yillarigacha mavjud bo'lgan.

Miloddan avvalgi taxminan 250 yil saklarning ko'chmanchi parnlar (daxlar) qabilasi Arshak (arshakiylar sulolasi asoschisi) boshchiligida Salavkiylar davlatidan ajrab chiqqan Parfiyo-na yoki P. satrapiyasiga bostirib kirganlar va P.ni, so'ngra qo'shni Girkaniya viloyatini ishg'ol etganlar. Salavk II o'z hokimiyatini qayta tiklash maqsadida olib borgan bir necha muvaffaqiyatsiz urinishlar (miloddan avvalgi 230— 227)dan so'ng P. da arshakiylar hukmronligini tan olishga majbur bo'lgan. 209 yil P.ni salavkiylar podshohi Antiox III bosib olgan. Biroq Salavkiylar davlatining zaiflashganidan foydalanib P. tezda o'z mustaqilligini tiklagan. Parnlar mahalliy parfyalar (parfiyaliklar) bilan aralashib ularning madaniyati, tili va mahalliy diniy e'tiqodlarini qabul qilishgan. Miloddan avvalgi taxminan 170—138/137 yillarda P. podshohi Mitridat I salavkiylarning sharqiy satrapiyalari va Yunon-Baqtriya podsholigining bir qismini (miloddan avvalgi taxminan 136 y.) bosib olgan. Miloddan avvalgi 1-asr boshida P.ning qudrati yanada ortib, Rim imperiyasining xavfli raqibiga aylangan. Miloddan avvalgi 53 yil P. Rim bilan to'qnashib, Karri jangitsa. Krase qo'mondonligi ostidagi Rim qo'shi-nini

butkul tormor etgan. Miloddan avvalgi 40-yilda P. Kichik Osiyoning deyarli butun hududini, Suriya va Falastinni zabt etgan.

2. Zahiriddin Muhammad Boburning dunyo tarixidagi tutgan o'rnini haqida ayting.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483—1530). Bobur temuriylar avlodining iste'dodli vakili, o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi, buyuk shoir, tarixchi, geograf, ulkandavlat arbobi, iste'dodli sarkarda. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan —Bobur(—Sher) laqabini oladi, Bobur Andijonda tug'ilgan. Otasi Umarshayx Mirzo Farg'onahukmdori edi. 1494-yilda Umarshayx vafot etgach, Bobur otasi o'rniga taxtga o'tirdi. Budavrda temuriylar davlati parchalanib toj-u taxt uchun kurash avj olgan edi. Dashti Qipchoqhukmdori Muhammad Shayboniyxon esa Movarounnahmi bosib olish ishtiyoqida edi. BoburMovarounnahmi birlashtirishni istar edi. Oxir-oqibat Bobur va Shayboniyxon qo'shinlarit'o'qnashdilar. Bu to'qnashuvda Shayboniyxon g'alaba qozondi. Mag'lubiyatga uchragan BoburVatanni tark etishga majbur bo'ldi. 1504- yil-da Bobur Afg'onistonning hozirgi poytaxti Kobulshahrini egalladi.Bobur Afg'oniston bilan cheklanib qolmadi. U ham barcha jahongirlar kabibuyuk saltanat tuzishni orzu qilari va o'z maqsadiga erishishiga ishonar edi. Bobur 1526-yildaHindistonni egalladi. Shu tariqa Hindistonda boburiylar saltanatiga asos solindi. Bobur odilpodsho sifatida nom qozongan.U o'z hokimiyatiga bo'ysunganlarga ko'p muruvvat ko'rsatgan.Bobur va boburiy hukmdorlar o'zga dinlarga xolis munosabatda bo'lganlar. Shuning uchun hamular mamlakat aholisining ko'pchiligini tashkil etuvchi hindlarning o'z dinlariga e'tiqodqilishlariga monelik qilmaganlar. Bobur o'zi asos solgan saltanatning poytaxti Agrada 1530-yili 47 yoshida vafot etdi.

3. “Manifest” atamasiga izoh bering.

Manifest(lot)-hukumatning juda muhim voqea munosabati bilan xalqqa qilgan yozma murojati

10-BILET

1. Franklar davlatining Yevropa taraqqiyotidagi o'rnini.

Frank davlati — ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi davlat (5-asr oxiri — 843). 5-asr oxirida G'arbiy Rim imperiyasining Galliya viloyatini Xlodvig 1 rahbarligidagi franklar tomonidan bosib olinishi jarayonida vujudga kelgan.

Buyuk Karlning harbiy yurishlari natijasida o'z tarkibiga G'arbiy Yevropaning deyarli butun qismi va Markaziy Yevropaning bir qismini kiritgan. Frank davlatini merovinglar (751 yildan), karolinglar (800 yildan imperatorlar) sulolalari boshqargan. 843 yildagi Verden bitimiga ko'ra, Frank davlati hududi Buyuk Karlning nabiralari tomonidan o'zaro taqsimlab olingan, xususan, Lotarga Italiya hududi, Reyn va Rona daryolari buyidagi yerlar (keyinchalik Lotaringiya) tekkan. Karl Kalboshga Reynning g'arbidagi yerlar va Lyudovikka Reynning sharqidagi yerlar berilgan. uyuk ko'chishlar boshlanishiga qadar german qabilalariga mansub franklar Reyn daryosi quyi oqimidagi

hududlarda yashaganlar. Franklar gotlar va langobardlar kabi hayvon terisidan emas, matidan kiyim- bosh kiyishgan va soch-soqollarini olib yurishgan. Ularda faqat qirol oilasiga mansub kishilar uzun sochda yurishgan. Franklar - Quyi va O'rta Reyn bo'ylarida milodiy 3-asrda yashagan qabilalar ittifoqiga birlashgan german qabilalari guruhi (xamavlar, brukterlar, usibetlar, tenkterlar, sugambrlar va boshqalar). Adabiyotlarda 2 guruhga bo'lingan. 1 guruh (g'arbiy F.)ning negizini sali (dengiz bo'yi; keltcha sal — dengiz) F. i tashkil etgan. Ular dastlab Eysel daryosi bo'ylarida, 4-asr o'rtalarida esa Reyn daryosi sohillarida yashaganlar. 2guruh (sohil F.) Reyn daryosining yuqori qismi bo'ylab Mayngacha bo'lgan hududda yashagan. Sali F.i 4 a. o'rtasida rimliklar tomonidan tormor etilgan, biroq federatlar huquqida Toksandriyada krlldirilgan; 451 yil gunnlarga qarshi Katolaun jangit qatnashganlar. 5-asr boshida sali F.i Galliyann Sommagacha egallaganlar. Frank davlati (5-asr oxiri — 9-asr o'rtalari) tashkil topgan. Maas va Luara daryolari oraliq'ida yashagan F. keyinchalik mahalliy aholi bilan singib ketib, shim. fransuz, shuningdek, vallon elatlari tarkibiga, Luaraning jan. rog'ida yashovchi F. esa, jan. fransuz (provansal) elati tarkibiga kirgan. Reyn daryosining quyi havzasida yashovchi F. gollandlar va flamandlarning etnogenezida katta rol o'ynagan. Reyn daryosining o'rta oqimi bo'ylab va Maas daryosi havzasida yashovchi F.da o'ziga xos etnik xususiyatlar saklanib qolgan. FRANKONIYA (Franken) Germaniyadagi tarixiy viloyat. Ilk o'rta asrlarda franklar istiqomat qilgan hudud, 9-asr oxiri — 939 yilda Germaniya qirolligining qabilaviy gersogliklaridan biri, keyinchalik bir necha feodal mulklarga parchalanib ketgan. F. nomi faqat Sharqiy F. (Mayn daryosi xavzasi) uchun saklanib krlgan. Uning katta qismi 1803 yilda Bavariya tarkibiga kiritilgan.

2. Muhammad Shayboniyxonning O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni haqida fikr bildiring.

Muhammad Shayboniy Abulxayrxonning nabirasi bo'lib, uning Shohbudog' Sulton ismli o'galining farzandi edi. Shohbudog' Sultondan ikki o'g'il qolgan: Muhammad Shayboniy va Mahmud Sulton. Muhammad Shayboniy 1451-yilda tug'ilgan. Shayboniyning bobosi Abulxayrxon saroyida ham turkiylar odatiga ko'ra tug'ilgan go'dakka ikki ism qo'yish urf bo'lgan. Ismlarning birinchisi islomiy (arab), ikkinchisiesa turkiy bo'lgan. Tug'ilganda Muhammad deb nom olgan Shayboniy o'zining ikkinchi nomi bilan mashhur bo'lgan. —Boburnomall asarida Shayboniyning ismi Shoyboqxon deb berilgan. Bu nom —kuch-qudratll degan ma'noni anglatadi.

Ota-onasidan yoshligida yetim qolgan Muhammad Shayboniy otasiga otaliq qilgan amir Boyshayx qo'lida tarbiyalangan. Boyshayx bu shahzodaga otalarcha mehribonlikko'rsatgan. Keyinchalik Shayboniyga nufuzli temuriy amirlardan bo'lmish Turkiston va O'tror hukmdori Muhammad Mazid tarxon homiylik qildi. Shayboniy ukasi bilan Turkistonda uzoq vaqt yashamadi. Keyinchalik ular Buxoroda yashab, ilm o'rgandilar,

she'riyat va ilm-fanga oshno bo'ldilar. Balog'atga yetgani sari Shayboniy ko'nglida bobosi Abulxayrxon davlatini tikiash orzusi jo'sh ura boshladi. U Dashti Qipchoqqa qaytib borib, lashkar to'plashga muvaffaq bo'ladi. Ayni paytda, u bobosining davlatini

tiklash yo'lidagi xatti-harakatini dastlab o'z qo'shini bilan temuriylarga yollanma qo'shin lashkarboshisi sifatida xizmat qilishdan boshlagan.

3. “Gimnaziya” atamasiga izoh bering.

Gimnaziya — MDHda va ba'zi Yevropa mamlakatlarida mavjud bo'lgan chuqur bilim beradigan maktab turi. „Gimnaziya— so'zi grekcha γυμνάσιον (gymnasion) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, qadimiy Gretsiyada yoshlar aqliy va jismoniy bilim oladigan joylar shu nom bilan atalgan. Zamonoviy ingliz tilida gymnasium so'zi asosan jismoniy mashq qiladigan joy ma'nosida qo'llaniladi.

11-BILET

1. Xorazmshohlar davlati.

11-asr va 12-asrning birinchi yarmida Xorazm saljuqiylar davlati (g'aznaviylar davlati xarobalarida 11-asrda tashkil topgan) tarkibiga kirgan. Xorazmning 11-asrdagi yuksalishi turkiylar sulolasiga mansub xorazmshohlar siyosati bilan uzviy bog'liq. Mazkur sulolaga saljuq amirining tashtdori Anushtegin asos solgan. Sulton hammomchilari mahkamasining sardori bo'lgan Anushtegin Garchoi Malikshoh (1072-1092 yy.) saroyida yuksak martabaga erishgan. U rahbarlik qilgan mahkama zimmasiga Xorazmni boshqarish ham yuklangan. 1077-yilda Malikshoh Anushtegin Garchoini Xorazmga noib etib tayinlaydi va Xorazmda Anushteginlar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Anushteginlar turkiylar sulolasidan bo'lib, o'sha paytda, Osiyoda hukmronlik qilgan uch buyuk sulola: Anushteginlar, Saljuqiylar va G'aznaviylar bir negizdan kelib chiqqan. 1097-yilda Anushtegin vafot etgach, Xorazm noibi etib Ekinji ibn Qorachar tayinlanadi. Biroq u o'sha yili noiblikdan chetlatilib, uning o'rniga Anushteginning o'g'li Qutbiddin Muhammad (1097-1127 yy.) qo'yiladi. Garchi, u "Xorazmshoh" unvonini tiklab, shu nom bilan ulug'lansa ham Saljuqiylarning sadoqatli noibi bo'lib qoldi. Qayta tiklangan xoramshoh mansabiga sazovor bo'lgan Anushtegin nabirasi Otsiz Xorazm mustaqilligi yo'lida astoydil harakat qilgan. Xorazmshoh Otsiz (1127-1156 yy.) saljuq sultoni Sanjarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borgan. U mug'ombir diplomat va qat'iy sarkarda bo'lib, mustaqil tashqi siyosat yuritadi. Chunonchi, u o'z hukmdori Sanjarning ruxsatisiz qipchoqlar va turkmanlarga qarshi urush boshlaydi. 12-asrning boshida O'rta Osiyoni sharq tomondan yangi istilochilar - qoraxitoylar bosib oladilar. Sulton Sanjar o'zining yaqin qarindoshi bo'lgan samarqandlik qoraxoniylar xoni Mahmudga yordamga keladi. Qoraxitoylarga qarshi Samarqand yaqinida bo'lib o'tgan jang Sanjarning to'la mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Xorazmshoh Otsiz Sanjarning mag'lubiyatidan ustalik bilan foydalanib 1141 yili Marvni ishg'ol etadi, 1142 yili esa Nishopurga yaqinlashadi. 1156 yili Otsiz vafot etadi va uning o'g'li Elarslon (1156-1172 yy.) xorazmiylar davlatini mustahkamlashni davom ettirib, Dixistonni tevarak-atrofdagi yerlarga qo'shib oladi. Elarslon o'ziga voris etib o'g'li Sultonshoh Mahmudni (1172-1193) tayinlaydi, biroq to'ng'ich o'g'li Takash ukasi hokimiyatini tan olmay, unga qarshi kurash boshlaydi. Natijada toju-taxt uchun kurash boshlanadi, bu kurash 21 yil davom etib, unda Takash g'olib keladi. Uning o'g'li Tekesh (1172-1200 yy.) 1187 yili Nishopurni, 1192 yili esa Marvni bosib oladi. 1194 yili g'arbiy saljuqlar sultonini qaqshatqich mag'lubiyatga uchratib, Eronning butun sharqiy qismini egallab oladi. 1195 yili Tekesh abbosiy xalifa

qo‘shinini tor-mor qilib, Iroqga bostirib kiradi. O‘z mamlakati hududlarini ikki karra kengaytirgan va qudratli davlat barpo etgan xorazmshoh Tekeshni Xorazmning eng iste‘dodli hukmdori deb e‘tirof etish mumkin. Uning siyosati kamchiliklaridan biri qipchoq harbiy aristokratiyasiga ko‘rsatilgan homiylik bo‘lgan. Qipchoqlar Tekesh rafiqasi xayriohligidan foydalanib davlat ishlariga ko‘proq ta‘sir ko‘rsatishga intilgan. Turkiy "qo‘mondonlar"ning davlat ishlariga o‘zboshimcha aralashuvi keyinchalik Tekesh o‘g‘li Muhammad zamonida Xorazm davlatining parchalanishiga sabab bo‘lgan. Alovuddin Muhammad (1200-1220) davrida mamlakat hududi yanada kengadi. 1210-yilda Movarounnahrni Qoraxitoylardan tortib oladi. Uning davrida mamlakat qanchalik gullab-yashnamasin, mamlakat ich-ichidan yemirilib borgan. Xatto, sulton saroyida ham ichki nizolar avj olib, ularning boshida Turkon Xotun va qipchoqlar turgan. Sulton saroyidagi bunday nizolardan foydalangan mo‘g‘ullar 1219-1221-yillarda mamlakatning asosiy qismini bosib oladilar. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi (1220-1231 yy.) 11 yil davomida Hindiston, Eron va Ozarbayjon hududlarida mo‘g‘ullarga qarshi mardonavor kurash olib boradi. 1231-yil avgustda Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjonda halok bo‘lgach, 154-yil hukmronlik qilgan Anushteginlar sulolasining hukmronlik davri tugaydi. Anushteginlar sulolasidan bo‘lgan Xorazmshohlar (1077-1231-yillar): 1. Anushtegin Garchoi 1077-1097 yy. 2. Ekinji ibn Qorachar 1097-y. 3. Qutbiddin Muhammad 1097-1127 yy. 4. Otsiz 1127-1156 yy. 5. Elarston 1156-1172 yy. 6. Sultonshoh Mahmud 1172-y. 7. Takash 1172-1200 yy. 8. Alovuddin Muhammad 1200-1220 yy. 9. Jaloliddin Manguberdi 1220-1231 yy.

2. Abdullaxon II haqida ma‘lumot bering.

Abdullaxon II 1534-1598-yillarda yashagan. Abdullaxon bandi Nurota tumanidagi oqchob yaqinidagi Beklar soy darasidajoylashagan. Qadimgi to‘gon qoldiqlari o‘rnida ulkan band qurdirdi. Abdullaxon bandi Uning ravoqlarinin togon tepasida turibochish yoki berkitishi mumkin, maqsad esao‘sha atrofdagi boz yerlarni sug‘orib dehqonchilikni rivojlantirish va yurtni obod qilishedi. Bu tadbirlar o‘z navbatida qishloq xo‘jalikni rivojanishini taminlagan. XVI asr oxirlariga kelib Buxoro xonligi nisbatan markazlashgan davlatga aylandi. Rossiyada bu davlatga nisbatan —Buyuk Buxoro|| iborasi qo‘llangan edi. Sunday qilib XVI asrdagi davlatchilikimiz tarixida yetakchi Sulola – shayboniylar sulolasi bo‘ladi. Sulolaning ong qudarati vakili Abdullaxon II davrida esa o‘zbek davlatchiligi o‘z tarixida yana bir yuksak darajaga ko‘tara olgan.

3. “Missiya” atamasiga izoh bering.

Missiya (lotincha) — yuksak burch, mas‘uliyatli vazifa; birdavlatning ikkinchi davlatga maxsus topshiriq bilan yuborganvakillari.

12-BILET

1. Oltin O‘rda xonligi haqida ma‘lumot bering.

Mo‘g‘ullarning 1235-yilda bo‘lib o‘tgan qurultoyi Rus va Shimoliy Kavkaz yerlarini

bosib olish haqida qaror chiqaradi. To'planadigan qo'shinga Botuxon yetakchilik qilishi e'lon qilinadi. Uluslardan o'nta askardan bittasining ajratilishi, Botuxonga yordamga Chingizxonning sarkardalaridan Subutoy Bahodirning berilishiga kelishiladi. Botu va Subutoylar 1237- yilning kuzida rus yerlariga hujum boshlab, dastlab Ryazanni bosib olishadi. Rusdagi siyosiy tarqoqlik mo'g'ullarga qarshilik ko'rsatish imkonini ham bermasdan 1238–1240-yillarda Vladimir, Suzdal, Kiyev, Galich, Volin va boshqa shaharlar bosib olinadi. 1243-yilda

O'qtoyning vafot etishi munosabati bilan Botuxon Volgabo'yi dashtlariga qaytadi. Shu tariqa Botuxon istilo qilgan Volgabo'yi, Shimoliy Qora dengiz sohillari, Shimoliy Kavkaz, Moldaviya hududlarida, rus yozma manbalarida bayon qilinishicha, Oltin O'rda nomini olgan Jo'ji ulusi shakllanadi. Oltin O'rda, Jo'ji ulusi – XIII asrning 40-yillariboshida Jo'jixonning o'g'li Botuxon (1236– 1255) tomonidan asos solingan davlat

2. Husayn Boyqaro haqida ma'lumot bering.

Husayn Boyqaro (Husayniy) (1438-yil, Hirot—1506-yil, 4-may, Bobo-Ilohi, Hirot yaqinida) - taniqli shoir va davlat arbobi. Hirot yaqinida tug'ilgan. 1469yildan umrining oxirigacha Xuroson podshohi. Uning hukmdorligi yillarida iqtisodiy va madaniy hayot yaxshilangan. Navoiyning maktabdosh do'sti va homiysi. Husayn Boyqaro, Husayniy (to'liq nomi Husayn ibn Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaro) (1438— Hirot — 1506) — Xuroson hukmdori (1469-1506), shoir. 15-asr o'zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan.

Temuriylardan Umarshayx mirzoning evarasi. Onasi Feruzabegim temuriylardan Mironshohning nabirasi. Husayn Boyqaro, Bobur ta'riflaganidek, ikki tomonlama ulug' („karim ut-tarafayn—) bo'lgan. Navoiyning tadbirkorligi bilan Yodgor Mirzoni qo'lga olib, taxtni qayta egallagan va umrining oxirigacha hukmdorlik qilgan. Saltanatiga Xorazm, Seyiston, Qandahor, Balx, G'aznadan Domg'ongacha bo'lgan yerlar kirgan. Yurak xastaligidan vafot etgan Husayn Boyqaro o'zi qurdirgan madrasa ichidagi maqbaraga dafn etilgan. Hozir maqbara vayron bo'lgan, qabr va uning ustiga o'rnatilgan „Sangi haft qalam— saqlanib qolgan.

3. “Konservativ” atamasiga izoh bering.

Konservativ (lotincha) — eski tuzum tarafdorlari, islohotlar va o'zgarishlarga qarshi turuvchilar.

13-BILET

1. Mo'g'ullar davlati.

Mo'g'ullar davlati - 13-asrning 1-yarmida Chingizxon va uning vorislarining istilochilik urushlari natijasida barpo etilgan davlat. 1206 yil bahorda Mo'g'ulistondagi turli toifa qabilalar sardorlarining qurultoyida Temuchin xon etib tayinlangan va unga "Chingizxon" ("Ulug' xon") deb nom berilgan, tashkil etilgan davlat "Yakka mongol ulus" deb atalgan. Chingizxon hokimiyatni mustahkamlash yo'lida bir qancha islohotlar o'tkazgan. Jumladan, ming oilani bir ma'muriy birlikka bo'lishga asoslangan va harbiy tus berilgan yangi

ma'muriy tuzum joriy etilgan. Unga ko'ra, Chingizxonga tobe bo'lganlar jami 95 ta "ming oila" birligiga bo'lib chiqilgan va bularning har biriga urush davrida Chingizxonga sadoqat bilan xizmat ko'rsatgan kishilar boshliq qilib tayinlangan. Lekin amalda ayrim mingliklar bir necha ming oiladan iborat ham bo'lgan. Min-gliklarni tashkil etishda imkon boricha bir toifadagi qardosh avlodlarni va qabilalarni bir-biridan ajratmaslikka e'tibor berilgan. Mazkur "ming oila"lar, o'z navbatida, g'arbiy "o'ng qanot" va sharqiy "so'l qanot", markaziy va tog'liklar kabi 4 qismga bo'lingan. har bir ming oila yuzlikka va o'nlikka bo'lingan. Aholini ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilgan. 15 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan erkaklar harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan. Qo'shinda qattiq tartib o'rnatilgan, qonunbuzarlar uchun qattiq jazo, qonun ustuvorligini himoya qilganlarga esa hurmat bildirilib, mukofot belgilangan. Savdo yo'llari, avvalambor Buyuk ipak yo'lining xavfsizligini ta'minlab, undan to'la foydalanishga e'tibor berilgan. Bu tadbirlar Chingizxon hokimiyatini mustahkamlashda ijobiy samara bergan.

Chingizxon mo'g'ullardan ko'p sonli yaxshi qurollangan, qattiq institutizomga asoslangan va uyushgan qo'shin tuzadi. 13-asr muallifi Juvayniyning yozishicha, osoyishtalik davrida chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan barcha mo'g'ul aholisi muqoraba e'lon qilinishi bilan tezda o'n, yuz, ming, o'n ming jangchi — tuman bo'linmalaridan iborat muntazam qo'shinga aylantirilardi. Har bir jangchi harbiy yurish vaqtida o'zita zarur bo'ladigan qurol-yarog', turli an-jomlar va ot-ulovlarini oldindan tayyorlab qo'yishga majbur bo'lgan. Qo'shin yuzboshi, mingboshi, tumanboshilar tomonidan boshqarilgan. Tuman bo'linmalariga, odatda, shahzodalar qo'mondonlik qilgan. Asosiy qo'shindan tashqari, Chingizxon ixtiyorida harbiy zodagonlardan tuzilgan maxsus gvardiya ("keshik") ham tashkil etiladi. Bu gvardiya faqat favqulodsa sodir bo'ladigan xavf-xatarga qarshi tashlanardi. Davlat ma'muriyatini markazlashtirish maqsadida Chingizxon Qoraqurum qal'asini o'z imperiyasining poytaxtiga aylantiradi. Xatsavodga mutlaqo ega bo'lmagan, madaniyati ni-hoyatda tuban mo'g'ullar davlat boshqaruv ishlarida uyg'urlardan hamda musulmon savdogarlaridan foydalandilar. Chingizxon va no'yonlarining maslahatchilari, mirzolari va ba'zi bir mulk ma'murlari, asosan, uyg'urlardan bo'lgan. Mac, Sharqiy uyg'urlar xoni Idiqut (Saodatbek) xonning yaqin do'sti va maslahatchisi edi. Tashatun ismli uyg'ur esa davlat muhrdori lavozimini hamda shahzodalarni xatsavodga o'rgatuvchi ustod vazifasini bajargan. Chingizxon tarqoq jangari mo'g'ul urug'larini birlashtirgach, tajo-vuzkorlik siyosatini yurgizdi (qarang Mo'g'ullar istilosi). Zabt etilgan o'lka va viloyatlarni Chingizxon 1224 yilda o'g'illari va nabiralarga taqsimlab berdi. Jan. Sibir, Dashti Qipchoq, Volga bo'yi, Xorazm va Darbandgacha bo'lgan o'lka Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'jiga (uning vafotidan keyin esa, nabirasi Botuga meros bo'lgan) topshirildi, Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Mo-varounnahr ga uning 2-o'g'li Chig'atoy ega bo'ldi. Chingizxon o'z vatani Mo'g'ulistonni, shuningdek, Xitoy ni 3-o'g'li va vorisi O'qtoyg'a berdi. Kenja o'g'li Tulug'a esa Xuroson, Eron va Hindiston tegdi. Shunday qilib, mo'g'ullar bosib olingan viloyatlarni uluslarga taqsimlab boshqarishga kirishadi.

Chingizxonning nabirasi Munke hukmronligi davrida (1251—59) Mo'g'ullar davlati tarkibiga Mo'g'uliston, Shim. Xitoy, Koreya, tangutlarning Si-Sya podsholigi, Markaziy va O'rta Osiyo, Zakavkazye, Eron, Afg'oniston va Rus yerlarining aksariyati kirgan. Biroq, Mo'g'ullar davlatida ichki birlik yo'q edi, u turli tillarda so'zlashuvchi ko'plab xalqlarni zo'rlik bilan birlashtirgan edi, bu xalqlar turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot bosqichida bo'lib, ularning ko'pchiligi taraqqiyot darajasiga ko'ra mo'g'ullardan ancha

ustun edilar. Munke o'limidan so'ng Mo'g'ullar davlati parchalanib keta boshlagan. Undan dastlab Botu (1236—55 yillar hukmronlik qilgan) va Xuloku (1256—65 yillar hukmronlik qilgan) uluslari ajralib chiqib, mo'g'ullar sulolasi hukmronligi ostida mustaqil davlatlar tuzganlar (Oltin O'rda, Hulokuiylar davlati). Bu davlatlar Mo'g'ullar davlati ishlariga aralashmaganlar va o'z navbatida, boshqalarning ham ularning ishlariga aralashishiga yo'l qo'ymaganlar. Munkening o'rniga taxtga chiqqan ukasi Xubilay (1260—94 yillar hukmronlik qilgan) davrida mo'g'ullar Xitoyning butun hududini bosib olishgan. Xubilay va uning vorislari saltanati Yuan deb atala boshlagan. 1368 yil Xitoydagi xalq qo'zg'oloni natijasida mo'g'ullar u yerdan quvilganlar. Kulikovo jangitsi so'ng mo'g'ullarning Rusdagi hukmronligiga darz ketgan. 14-asrning 2-yarmida Eron, Zakavkazy va O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronligi tugatilgan. 14-asrning so'nggi choragida Mo'g'ullar davlati barham topgan. 15-asrda Esenxon (1440—55 yillarda xonlik qilgan) va Dayanxon (1479—1543 yillarda xonlik qilgan) kabi hukmdorlar birlashib Mo'g'ullar davlatini tiklashga harakat qildilar. Ammo bu harakatlar natija bermadi. Dayanxonning o'limidan keyin mamlakat Jan. Mongoliya va Shim. Mongoliyaga bo'linib ketdi. Shim. Mongoliya ham, o'z navbatida, G'arbiy va Sharqiy qismlarga ajraldi. 16-asrda Mongoliyaning 3 qismida jami 200 hokimlik (knyazlik) mavjud edi.

2. Muhammad Rahimxon I ning Xiva xonligi tarixidagi tutgan o'rni haqida fikr bildiring.

Eltuzarxon vafot etgach, taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o'tirdi. Muhammad Rahimxon I Xiva xonligini siyosiy jihatdan birlashtirishga kirishdi. Ayni paytda, turkmanlarni bo'ysundirish masalasi yetakchilarga chiqdi. Turkmanlarning turli qabilalari qanchalik qattiq qarshilik ko'rsatmasinlar, birin-ketin bo'ysundirib borildi.

Bo'ysunishni istamagan yovmut qabilasi Xurosonga ko'chib ketdi. Biroq Eron hukumatining tazyiqi ostida hamda yaylov maydoni yo'qligi uchun yana Xiva xonligi hududiga qaytib keldi. Endi ular Xiva xoni tomonidan ajratib berilgan hududga joylashishga majbur bo'ldilar. Shu davrdan boshlab, yovmut qabilasining taqdiri Xiva xonligi bilan uzil-kesil bog'lanib, xonlik fuqarolari tarkibiga olindi. Ularga ham soliq to'lash

belgilandi. Shuningdek, xon qo'shiniga belgilangan miqdorda navkar yuborish majburiyati ham yuklandi. Yuborilganligi ham bejiz bo'lmagan. Muhammad Rahimxon I (1806-1825) o'zbeklar va turkmanlardan tuzilgan —Xon navkarlaril deb atalgan muntazam qo'shinga tayanib yirik zodagonlar qarshiligini sindirish uchun shiddatli kurashda o'z raqiblarini birin-ketin bo'ysundira bordi. Muhammad Rahimxon I ga dushmanlik ruhidagi Orolbo'y zodagonlari guruhi qattiq qarshilik ko'rsatdi. Biroq, 1811-yilda ularning qarshiligi sindirildi. Xiva xoni qoraqalpoqlarni ham bo'ysunishga majbur etdi. Muhammad Rahimxon I davrida xonlik siyosiy jihatdan birlashtirildi. Ayni paytda, uning hududlari yanada kengaytirildi. Mamlakatda nisbiy barqarorlik ta'minlandi. Muhammad Rahimxon I mamlakat obodonchiligiga ham alohida e'tibor berdi. Qatormadrasalar va masjidlar qurdirildi.

3. "Federatsiya" atamasiga izoh bering.

Federatsiya(lotincha — ittifoq) — hududiy jihatdan muayyan siyosiy mustaqillikka ega bo'lgan bir necha davlatlardan iborat yagona ittifoq davlat.

14-BILET

1. Dashti Qipchoq haqida ma'lumot bering.

Dashti qipchoq, Qipchoq dashti — Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g'arbiy yon bag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar yoyilgan dashtlarni 11 — 15-asrlarga oid arab va fors manbalaridagi nomi. "D.Q." atamasini dastlab Nosir Hisrav (11-asr) qo'llagan. Bu davrda qipchoqlar Irtish daryosi sohillaridan

g'arbga tomon ko'chib (1030 y.) Xorazmga qo'shni bo'lishgan va hozirgi Qozog'iston hududi, shuningdek, jan.-rus dashtlarini egallashgan. D. Q. aholisi sharq manbalarida — qipchoklar, rus solno-malarida — polovetslar, Vizantiya xronikalarida — kumanlar, venger manbalarida kunlar deb atalgan. D. Q. 2 qism

— Sharqiy va G'arbiy qismdan iborat bo'lib, Yoyiq (Ural) daryosi ularning chegarasi sanalgan. G'arbiy qism Yoyiq va Itil (Volga) daryosidan to

Dneprgacha bo'lgan hududdan iborat bo'lgan. 13-asrda D. Q.ni mo'g'ullar bosib olib, tarixda Jo'ji ulusi nomi bilan mashhur Oltin O'rda davlatini barpo etganlar. 14-asr boshlarida Jo'ji ulusi 2 qismga bo'linib ketgan. D. Q.ning sharqiy qismida Oq O'rda tashkil topgan. D. Q. ning g'arbiy qismi rus yilnomalarida "Polovetslar yeri" nomi bilan uchraydi. 14-asr 60-y.laridan sharqiy D. Q. "O'zbeklar mamlakati", uning aholisi esa "o'zbeklar" deb atala boshlandi. 15-asrning

20y.dan boshlab sharqiy D. Q.da Abulxayrxon va uning qarindosh-urug'lari hukmronlik qilgan. D. Q.ning asosiy axoliyey ko'chmanchi va yarim o'troq bo'lib, chorvachilik va ovchilik, daryo va ko'l yoqalarida yashagan aholi dehqonchilik, shaharlari (Saroy Botu, Saroy Berka, O'rda Bozor, Sig'noq, Arquq) dagi aholi esa hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. 16— 18-asrlarda Movarounnahr tarixshunosligida "D. Q." atamasi uning sharqiy qismi (hoz. Qozog'iston) ni anglatgan.

2. Doro I ning dunyo tarixidagi tutgan o'rni haqida fikr bildiring.

Miloddan avvalgi V asr boshlarida urushlarinig Yunonistonga forslar tahdid sola boshladi. Doro I hukmronlikqilayotgan Fors davlati yangi-yangi mamlakatlarni bosib olishga intilgan. Forslarning Yunonistonga harbiyyurishlari yunon-fors urushlari nomini olgan bo'lib, ular miloddan avvalgi 490-yildan boshlanib, Mil. avv.449-yilga qadar davom etgan. Yunonistonning barcha shaharlarida fors elchilari paydo bo'lib, ular: «Bizninghukmdorimiz, buyuk shahanshoh Doro, kunchiqardan kunbotargacha barcha mamlakatlarning birdan-biregasi sizdan yer va suv talab qilmoqdadir», deb baralla aytishardi. Yunonistondagi ayrim shaharlar aholisiforslarga qarshilik ko'rsatishning sira iloji yo'q deb hisoblab, shahanshoh Doro I ning shartlarini qabulqilishga rozi edilar. Afina va Sparta bosqinchilarga itoat etmaslikka ahd qildi. Fors elchilari Afinagakelganda, shahar aholisi g'azabdan ularni O'ldirib, qoyadan tashlab yubordilar.

Elchilarni chuqur quduqqatashlab yuborgan spartaliklar esa zaharxanda bilan: «Yetarlicha suvni ham, yerni ham quduq tubidantopasiz-da!» deyishgan ekan. Mil. avv. VI asr oxirida Fors shohi Kichik Osiyodagi yunon shahar-davlatlarinibosib oldi. Afina hukmdori yunon polislariga yordam qo'lini cho'zdi. Bundan g'azablangan Doro I Afinadanshafqatsiz qasos olishga ahd qildi.

3. “Ekspluatatsiya” atamasiga izoh bering.

Ekspluatatsiya (fransuzcha) — mulkdorlarning boshqalar mehnati mahsulini o'zlashtirib olishi.

15-BILET

1. Usmoniylar imperiyasi.

Usmonli imperiyasi, Usmonlilar davlati (Yevropada Ottoman imperiyasi deb atalgan) — Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qrimda usmonlilar sulolasi boshqargan davlat (1299—1922). Usmonli imperiyasiga Usmon I asos solgan.

Bu davlat dastlab Kichik Osiyoning Shimoliyg'arbiy qismi Eski shahar va Anatoliya hududida saljuqiylarning Ko'niya sultonligiga tobe kichik bir beklik (beylik) shaklida tashkil topgan. Bu beklikning ilk hukmdori Erto'g'ul bo'lsa ham, uning o'g'li — Usmonbey davrida beklik mustaqil davlatga aylanganligi uchun uning nomi bilan Usmonli bekligi deb atalgan. Keyinchalik bu davlat Usmonli imperiyasi nomini olib, o'rta asrlarda jahonning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Usmon I va uning o'g'li Urxon bek (bey) unvonini qabul qilgan bo'lsa, Urxonning o'g'li Murod I davridan boshlab hukmdorlar sulton deb atalgan.

Usmon G'oziy davridayoq qo'shni Vizantiya imperiyasiga qarshi bir qancha harbiy yurishlar qilinib, Qoracha Hisor va Yor Hisor qal'alari, Bursaning atroflari egallangan.

Uning o'g'li Urxon G'oziy Vizantiyaning Bursa, Nikeya, Nikomediya shaharlarini istilo qilib, XIV asrning o'rtalaridayoq Qora dengiz va Marmar dengizi sohillariga chiqqan. Bu davrda usmonli turklar (ular o'g'uz turklarining qay urug'iga mansub bo'lgan) Dardanell bo'g'ozidan o'tib, Yevropa hududiga kirishgan. 1356-yilda Bolqonni zabt etish tugallanib, Yevropa hududida yangi Rum eli (Rumeliya) viloyati ta'ris etilgan. Aynan shu paytdan Usmonlilar davlatini saltanatga aylanish jarayoni boshlangan. 1360-yil yanicharlar (turkcha: yangi cherik) — maxsus piyoda qo'shin tashkil qilingan.

Davlatning dastlabki poytaxti Melangiya, 1326— 1362-yillarda Bursa bo'lgan. Sulton Murod I, 1362-yilda poytaxtni Bursadan Edirna (Adrianopol)ga ko'chirgan. Uning hukmronlik davrida Yevropada yangi hududlar zabt etilgan. Kosovo maydonida bo'lgan jang (1389)da serblar maglubiyatga uchragach, Serbiya Usmonli imperiyasiga qo'shib olindi. Sulton Boyazid I Yildirim Bolgariyaning poytaxti Tirnovo (1393)ni egallab, Nikopol ostonalarida salibchi ritsarlarning birlashgan 60.000 kishilik qo'shinini maglubiyatga uchratdi (1396) va Vizantiyaning poytaxti Konstantinopolni qamal qilishga kirishdi. U Bolgariya, Valaxiya, Makedoniya, Fessaliyani o'z davlati tarkibiga

kiritdi. Biroq, 1402-yilda bo'lgan Anqara jangi Amir Temur qo'shinidan Usmonli imperiyasi ning maglubiyatga uchrashi Vizantiya imperiyasini mukarrar halokatdan saqlab qoldi. Sulton Mahmud I va Murod II hukmronliklari davrida qo'ldan ketgan hududlar qaytarib olingan. Adolatli va insofli hukmdor sifatida nom chiqargan Murod II G'oziy 1422-yil Konstantinopolga hujum qiladi. Varna yaqini (1444-yil 10-noyabr) va Kosovo maydoni (1448-yil 17— 19 dekabr)da chex-mojarlar qo'shinini mag'lubiyatga uchratib, 1449—50-yillarda Albaniya ustiga 2 marta yurish qilgan.

Murod II ning o'g'li Mahmud II Fotih turk qo'shinlariga shaxsan o'zi qo'mondonlik qilib, jahongirlik siyosatini olib borgan. U Sharqiy Rim imperiyasi —

Vizantiyaning poytaxti Konstantinopolni 40 kunlik qamaldan so'ng egallab (1453-yil 29-may), Vizantiya imperiyasini tugatgan. Konstantinopol turkcha Istanbul nomi bilan atalib, poytaxt bu yerga kuchirilgan. Bu g'alabadan sung Mahmud II Fotih Bolqon va Markaziy Yevropa mamlakatlarini zabt etishga kirishgan. Serbiya (1459), Moraviya (1460), Bosniya (1463), Valaxiya (1476), Albaniya (1479) Trapezund —

Trabzon (1461) egallangan. Qrim xonligi tobe davlatga aylantirilgan (1475). Oq qo'yunli davlati hukmdori Uzun Hasanga qarshi harbiy harakatlar kuchaytirilgan. Yevropaning Italiya, Olmoniya, Avstriya kabi davlatlari hududlarini egallash rejasi tuzilib, amaliy harakatga o'tilgan. Bu davrda harbiy va ma'muriy boshqaruv sohasida katta islohotlar o'tkazilib, ulkan saltanatni mustahkamlash choralari ko'rilgan. Ayniqsa, adabiyot, san'at va me'morchilik gullab-yashnagan.

Sulton Boyazid II, Salim I va Sulaymon I hukmronlik qilgan davrlarda saltanat haddan tashqari kuchaygan. Xususan, Salim I Yovuz Eron safaviylari shohi Ismoil I qo'shinini yanchib tashlaydi (1514-yil 23-avgust). Iroq, Shom

(Suriya), Falastin, Misrni egallab, Qohiraga kiradi (1517). Bu paytda Misrdan tashqari Shimoliy Afrikaning Jazoir hududi, shuningdek, Bolqon, Arabiston, Janubiy-Sharqiy Anadolu ham Usmonli imperiyasi tarkibiga kirgan. Halabda bo'lgan juma namozi (1516-yil 28-avgust)da sulton Salim I ga "ikki muqaddas shahar xizmatchisi" faxriy unvoni berilib, xalifa sifatida uning nomi xutbaga qo'shib o'qilgan (Usmonli sultonlar shu kundan e'tiboran to 1924-yilgacha ayni paytda islom olamining xalifasi ham hisoblangan). Sulton Sulaymon I ham jahongirlik siyosatini davom ettirgan. Mojariston bosib olingach, turklar Venani 1 marta qamal qilishgan

(1529). Polsha va Ukrainaga qo'shin jo'natilib, Egey dengizidagi Rodos va boshqalar orollar ishg'ol qilingan. Sulaymon I Qonuniy "Muqaddas Rim imperiyasi"ga qarshi kurashish uchun Fransiya qiroli Fransisk I bilan birinchi fransuz-turk siyosiy shartnomasi va savdo bitimini imzolagan (1535). 1556-yilga kelib Usmonli imperiyasiga Kichik Osiyo hududi, G'arbiy Gurjiston,

G'arbiy Armaniston, Livan, Suriya, Iroq (Bag'dod bilan birga), Falastin, Hijoz, Yaman, Misr, Tripoli, Jazoir, Yunoniston, Bulg'oriston, Mojariston, Serbiya, Bosniya, Valaxiya, Transilvaniya, Moldaviya, Qrim kirgan. Bu paytda u jahondagi eng qudratli saltanatlardan biri hisoblangan. Saltanatning ulkan hududi 3

qit'a: Yevropa, Osiyo, Afrikaning katta kismini egallagan bo'lib, uning maydoni 8 mln. km²ga yetgan. 16 asrda turklarning kuchli dengiz floti butun O'rta dengiz havzasini nazorat qilib turgan.

Sulton Murod III xukmronligi davrida Kipr oroli bo'ysundirilgan. Bu paytda Gibraltar bo'gozidan Fors qo'ltig'igacha, Dunaydan Nil sohillarigacha bo'lgan hudud sultonlikka qaragan.

Biroq XVII asr oxiridan boshlab sultonlikning harbiy, siyosiy va iqtisodiy qudrati astasekin zaiflasha boshlagan. Yevropa mamlakatlari o'zaro ittifoq tuzib, Usmonli imperiyasiga qarshi kurashga chog'langanlar. Vena atrofida bo'lgan 2 jangda turk qo'shini Avstriya, Olmoniya, Polshaning birlashgan armiyasidan yengilgan (1683-yil). Muntazam davom etib turgan Rossiya -Turkiya urushlari (1676-1681, 1684-1699, 1710-1711, 1768-1774, 1787-1791, 1807-1812, 1828-1829, 1853-1856, 1877-1878, 1914-1916 va boshqalar) oqibatida Usmonli imperiyasi asta-sekin zaiflashib borgan. Hatto bu paytda vahhobiylarning ta'siri kuchayib, ular inglizlarning yordamida Fors qo'ltig'idagi El-Xasa (1792), Karbalo (1801), Makka va Madina (1803—1806)ni egallab, turklarga qarshi qirg'in uyushtirgan.

Salim III va Mahmud II hukmronliklari davrida saltanatni parchalanib ketishdan saqlab qolish uchun islohotlar o'tkazilgan. Sulton Abdulmajid yana islohotlar (Tanzimat) o'tkazish (1839) orqali, bir tomondan, sultonlik inqirozini to'xtatishga, ikkinchi tomondan, yangi turk ziyolilarini (ular o'zlarini yangi usmonlilar deyishgan) shakllantirishga muvaffaq bo'ldi. Bu paytda bo'lgan Qrim urushida Turkiya o'zining eski raqibi Rossiya imperiyasi ustidan g'olib chiqdi hamda Qora dengiz va Dunay daryosidagi mavqeini qayta tikladi. Tanzimat va 1876-yilda qabul qilingan dastlabki konstitutsiya sulton Abdulhamid II tomonidan bekor qilingach (1878), mamlakatda istibdod davri boshlangan. Bu davrda sultonlik Yevropa davlatlariga iqtisodiy jihatdan qaram bo'la boshlagan. 19 asr oxiri — 20 asr boshlarida "Ittihad va taraqqiy" partiyasi a'zolari mamlakatda konstitutsion monarxiya o'rnatish uchun qat'iy harakat qilishgan (Turkiya).

1922-yil 1-noyabrda Turkiya Buyuk Millat Majlisi sultonlikni tugatish to'g'risida qaror qabul qildi. Mustafu Kamol (Oaturk) bosqinchilarga qarshi ko'tarilgan milliy ozodlik harakatiga rahbarlik qilib, sultonlikning asosan turklar yashaydigan hududi — Kichik Osiyo va qisman Yevropada 1923-yil 29-oktyabrda Turkiya jumhuriyatiga asos soldi.

2. Chingizxonning harbiy yurishlari haqida fikr bildiring.

Mo'g'ul qabilalari orasidagi o'zaro urushlarda, XIII asrning boshlarida Temuchin(1155-1227) g'olib chiqadi. 1206-yilda Onon daryosi bo'yidagi qurultoyda u ulug' xon debe'lon qilinadi. Bosh shomon butun xalq oldida Temuchinga Chingizxon unvonini beradi. Chingizxon so'zi — kuchlil, —qudratlil,

—tozal ma'nolarini bildiradi. Mamlakatni

markazlashtirish maqsadida Chingizxon Qoraqurum qal'asini o'z davlatining poytaxtiga aylantiradi. Chingizxon tez orada janubiy Sibirda yashagan ko'pgina xalqlarni bo'ysundiradi. Ular qatorida buryatlar, yoqutlar, qirg'izlar va boshqalar bor edi. Chingizxon 1211-yilda Shimoliy Xitoyga qarshi urush boshlaydi. Mamlakatni batammom istilo qilinishi ining vorislaridavrida tugaydi. Yettisuv va Sharqiy Turkistonga qarshi 1218-yili boshlangan bosqinlar, xorazmshohlar

davlatiga 1219-1221-yillarda yoyildi. Afgʻoniston, Sharqiy Eron egallanib, Kavkaz orqali 1223-yilda Dashti Qipchoqqa chiqadi. Kalka daryosi boʻyida qipchoqlarning ittifoqchisi sifatida ularga yordamga kelgan ruslar qoʻshini magʻlub etiladi. 1224-yilda Chingizxon zabt etilgan hududlarni oʻz oʻgʻillari: Joʻji, Chigʻatoy, Oʻqtoy va Tuliga uluslarga boʻlib, taqsimlab beradi. Oʻqtoyni taxt vorisi etib tayinlaydi.

3. “Karavella” atamasiga izoh bering.

Karavella - yelkanli kema turi, Evropada, ayniqsa Portugaliya va Ispaniyada, XV asrning ikkinchi yarmi - XVII asr boshlarida keng tarqalgan. Katta geografik kashfiyotlar davri boshlangan birinchi va eng mashhur kemalardan biri.

16-BILET

1. Qadimgi Misr.

Misrda odamlar paleolit davridan boshlab yashagan. Miloddan avvalgi 10—6ming yillikda Nil atrofidagi savannalarda tarqoq yashagan qabilalar terimchilik, ovchilik, keyinroq esa baliq ovlash bilan shug'ullanishgan. Ular orasida kad. som xalqlariga mansub qabilalar, barbarlar va kushitlar • bo'lib, ularning aralashuvidan miloddan avvalgi 4ming yillikda M. xalqi vujudga kelgan. Aholi nufusining ortishi chorvachilik va dehqonchilikka o'tishni tezlashtirgan, bu esa hududiy jamoalarning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Dehqonchilik qilish uchun kanallar, to'g'onlar qurish zaruriyati tug'ilgan, buning uchun esa o'zaro urushlarda asir tushgan qullar mehnatidan foydalanilgan. Natijada jamoada ijtimoiy tabaqalanish ro'y berib, urug' zodagonlari ajralib'chiqqan, qabila sardorlari podshohchalarga aylangan. Bir qancha mayda quldorlik davlatlar vujudga kelgan. Keyinchalik ular o'rtasidagi kurash natijasida, shim.da Quyi Misr, jan.da Yuqori Misr podshohliklari tuzilgan. Miloddan avvalgi taxminan 3ming yillikda ikkala podshohlik birlashib, yagona davlat barpo bo'lgan. M.ning keyingi tarixi 4 asosiy davrga bo'linadi: Ilk podshohlik (miloddan avvalgi taxminan 3000—2800), Qadimgi podshohlik (miloddan avvalgi taxminan 2800—2250), O'rta podshohlik (miloddan avvalgi taxminan 2050—1700), Yangi podshohlik (miloddan avvalgi 1580—1070), So'nggi (Liviya-Sais va Eron) davr (miloddan avvalgi taxminan 1070—332).

Ilk podshohlik davri sug'orish tarmoqlarining rivojlanishi, tosh va mis kurollarining mukammallashuvi, kulolchilik charxining paydo bo'lishi, ayirboshlash savdosining taraqqiy etishi bilan harakterlidir. Bu davrda davlat apparati va unga xizmat qiluvchi amaldorlar — kotiblar tabakasi shakllangan, ma'muriy okruglar — nomlar tashkil topib, ularni noma rxl ar boshqargan, muntazam ravishda bosqinchilik yurishlari uyushtirilib turilgan, jumladan, jan.ga — Kush (Nubiya)ga, shim.-g'arbga — liviyaliklarga va Sinay ya.o.dagi badaviylarga qarshi (bu yerda mis konlari bor edi) yurishlar qilingan.

2. Jaloliddin Manguberding O'zbekiston tarixidagi tutgan o'rnini haqida ayting.

Jaloliddin Manguberdi (to'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad) (1198–1231) – Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220–1231), mohir sarkarda. Anushteginiylardan. Jaloliddin burnida xoli (mank) bo'lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib —Manguberdi|| nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. Parvon jangi (1221) –

Jaloliddin Manguberding mo'g'ul bosqinchilariga qarshi olib borgan janglaridan biri. Parvon jangi o'g'ullarning bu urushdagi eng katta mag'lubiyati bo'lgan. Mo'g'ullar bosib olgan ko'pgina shaharlarda xalq qo'zg'olon ko'tarib mo'g'ulnoiblarini o'ldirganlar. Sind daryosi bo'yidagi jang – Jaloliddin Manguberdi va Chingizxon qo'shinlari o'rtasidagi jang (1221-yil 25-noyabr). Jangda Chingizxon qo'shinlari muvaffaqiyat qozonadi.

3. “Espeditsiya” atamasiga izoh bering.

Ekspeditsiya (lot. — tartibga keltirish, yurish) —1) biror narsa (mas, xatxabarlar, yuk va shahrik.)ni jo‘natish, tarqatish; 2) muayyan narsani jo‘natuvchi, tarqatuvchi muassasa, korxon bo‘limi; 3) biror maxsus (ilmiy, harbiy) topshiriqqa ega bo‘lgan shaxslar guruhi, otryadning safari; shundan tadbir qatnashchilari guruhi.

17-BILET

1. Qang’ davlati haqida fikrlaringizni bildiring.

Xitoy manbalaridan bu davlatning Qang’yuy deb atalgani ma‘lum. Mil. avv. III asrda unga saklarasos solishgan. Qadimshunoslarning aniqlashicha, Toshkent vohasida miloddan avvalgi III asrda asos solingan, Qanqa – Qang’xashaharqal‘asi saklarning o’sha kezlardagipoytaxti Qang’dez bo‘lgan. Xitoy manbalaridabu shahar Bityan deb atalgan. Qang’ davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo‘ylab joylashgan.Miloddan avvalgi II asr oxirida Qang’ qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. U ning hukmdorlari o‘z nomidan tangalar zarbqildir ganlar. Qang’ davlatida istehkomlar, ibodatxonalar, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo etilgan.Davlatning madaniy markazlaridan biriToshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o‘troqziroatchilik va hunarmandchilik madaniyati vujudga kelgan.Uning hududidan Buyuk Ipak yo‘liningshimoliy tarmog‘i o‘tganligi davlat iqtisodining gullab-yashna shiga imkon yaratdi. Lekin ayni shu hol ko‘chmanchi qabilalar bilan urushlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Bu urushlarda qang’arlar (Qang’ davlati aholisinishunday atashgan) ko‘pincha g‘olib chiqaredilar. Milodiy III asrda Qang’ davlati parchalanibketdi.

2. Oktavian Avgust haqida ma‘lumot bering.

Mil. avv. 31-yilda Yunoniston qirg‘oqlarida Antoniy va Oktavian flotlari o‘rtasida jang bo‘ldi. Jang qizigan bir pallada Kleopatra vaAntoniy Aleksandriya shahriga qochadilar. Armiya va flot Oktavianga taslim bo‘ladi. Keyingi yili Oktavian qo‘shin bilan Misrga yetibkeladi. Antoniy va Kleopatra o‘z-o‘zini o‘ldiradi, Misr esa Rim davlati provinsiyasiga aylanadi.Shu tariqa Oktavian butun Rim imperiyasiningyakka hukmdori bo‘lib oladi.Mil. avv. 29-yilda Oktavian Senatdan imperator unvonini va Avgust laqabini oladi.U Rim imperiyasining asoschisiga aylanib,bir qator islohotlar o‘tkazdi. Imperator kengko‘lamda qurilish ishlari olib bordi. Uning davrida Rimda ko‘plab saroylar va ibodatxonalarbunyod etildi.Oktavian Avgust vafotidan so‘ng uning vorislari Kaligula va Neron hukmronligi davrida imperiyada inqiroz boshlandi. Faqatmilodiy II asrning boshlarida Rimning kuchqudrati qayta tiklandi. Bu asr Rim imperiyasining «oltin asri» degan nom olgan.

3. “Jevachi” atamasiga izoh bering.

Jevachi (jeva — qurol-aslaha) — qurol-aslahaxona boshlig'i.

18-BILET

1. G‘aznaviylar davlati.

G‘aznavilar davlati – Xuroson, Shimoliy Hindiston hamda qisman Movarounnahrda (X-XII asrlarda) yashagan turkiy davlat.

G‘aznaviylar davlatiga Alpteginning g‘ulomi va kuyovi Sabuktegin asos solgan. Davlat nomi saltanatning poytaxti G‘azna shahri nomidan olingan. Turkiy g‘ulomlar xizmatlari evaziga somoniylardan Xuroson va Afg‘onistonning turli viloyatlari (G‘azna, Kobul va boshqalar) ni boshqarish huquqini olganlar. Sabuktegin G‘azna viloyatining noibi va qo‘shin amiri qilib tayinlangach (977), u bu mulklarni mustaqil boshqarishga kirishgan. 994–995 yillarda Xurosonda bo‘lib o‘tgan 2 jangda somoniylar amiri Nuh ibn Mansur va noib Sabuktegin boshchiligidagi birlashgan qo‘shin isyon ko‘targan turk sarkardalari Abu Achi Simjuriy (Abulhasan Simjuriynint o‘g‘li) va Foyiq qo‘shinlarini tor-mor keltirish jarayonida Sabukteginning siyosiy nufuzi yanada ortadi.

G‘.d ning eng kuchaygan davri amir Sabuktegin, ayniqsa, sulton Mahmud G‘aznaviy hukmronligi yillariga to‘g‘ri keladi. 11-asr boshlariga kelganda Musulmon Sharqining eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan G‘aznaviylar davlatining chegaralari g‘arbda Ray va Isfahon shaharlari, Kaspiy dengizi hamda shim.-g‘arbda Xorazm va Orol dengizigacha cho‘zilgan, sharqda esa Shim. Hindistonning kattagina qismini o‘z ichiga olgan va jan.da Balu-jistongacha yetgan edi. Mahmud G‘aznaviy somoniylar sulolasi barham topgach, ularning Xurosondagi butun hududini, keyinchalik Xorazm davlatini (1017) ham o‘z saltanati tarkibiga qo‘shib olgan. Biroq Janubiy Toxariston (hozirgi Shim. Afg‘oniston)dan tashqari Shimoliy Toxariston (hozirgi Surxondaryo viloyati va Janubiy Tojikiston) hududini ham egallash uchun g‘aznaviylar kurash boshlaganlarida qoraxoniylar bilan ularning manfaatlari o‘zaro to‘qnashdi. Keskin kurashlar natijasida Chag‘oniyon va Termiz g‘aznaviylarga bo‘ysundirilgan. G‘aznaviylar bilan qoraxoniylar davlati o‘rtasidagi chegara Amudaryo deb e‘tirof qilingan. 1024–1025-yillarda Mahmud G‘aznaviy Termiz yaqinida Amudaryoni kechib o‘tib, temir darvoza (Temir qopqa) orqali Sug‘dga hujum qilgan va Samarqandgacha borgan. Bu harbiy yurishlar natijasida Omul (Chorjo'y)gacha bo‘lgan viloyatlar qoraxoniylar hukmronligidan chiqib, g‘aznaviylar ta’siriga o‘tgan. Bu davrda G‘aznaviylar davlati Sharqdagi yirik musulmon davlatiga aylangan edi. Biroq, Mahmud G‘aznaviyning o‘g‘li va valiahdi Mas‘ud G‘aznaviy hukmronligi davrida (1030–1041) G‘aznaviylar davlati o‘z qo‘l ostidagi hududlarni birin-ketin qo‘ldan chiqarib, asta-sekin tanazzulga yuz tuta boshladi.

2. Ismoil Somoniy haqida ma’lumot bering

Ismoil Somoniy o‘rta asrlarning qobiliyatli, serg‘ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi. U Movarounnahrni birlashtirib, mustahkam davlat tuzishga intildi. Shimoli sharqiy

hududlarga yurish qiladi. 893-yilda Tarozi shahrini zabt etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba beradi. Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishishi, shubhasiz, Arab xalifalariga yoqmas edi. Shu boisdan xalifalik safforiylar bilan somoniylarni to'qnashtirishga va ularning har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda o'z ta'sirini qayta tiklashga harakat qiladi. Xalifa Mu'tazid (892–902) safforiylar hukmdori Amr ibn Laysga Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gij-gijlaydi. Natijada 900-yilda ular o'rtasida urush boshlanadi. Urush Ismoilning g'alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Noilojlikdan xalifa Ismoilga hukmdorlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ladi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahr va Xurosonni o'z qo'l ostida birlashtirdi. Buxoro shahri bu ikki davlatning poytaxtiga aylandi.

3. “Gildiya” atamasiga izoh bering.

Lotin so'zidan kelib chiqqan atama gremium. Shuningdek, siz bir xil ijtimoiy mavqega ega bo'lgan yoki umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan boshqa odamlar guruhiga murojaat qilishingiz mumkin.

Bir turdagi kabi uyushma, gildiya O'rta asrlarda Evropa shaharlarida savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan hunarmandlarni birlashtirish uchun paydo bo'lgan. Birlashish orqali hunarmandlar faollikni oshirishi, talabni tashkil qilishi va barcha sheriklar uchun ishlashni kafolatlashi mumkin edi. Boshqa tomondan, ular o'z ishlarini o'qitishga bag'ishlangan edilar. Ushbu muammolar gildiyani boshlang'ich nuqtasi sifatida ko'rib chiqishga majbur qiladi zamonaviy kasaba uyushmalari, ierarxiasiz bo'lsa ham.

19-BILET

1. Eftallar davlati.

Eftaliylar davlatlari — O'rta Osiyo va unga qo'shni mamlakatlarda milodiy 5-asr o'rtasida barpo etilgan davlatlar: 1) O'rta Osiyodagi Eftaliylar davlati milodiy 5-asr oxiri — 6-asr boshida ravnaq topib, uning hududi hozirgi Afg'onistonning katta qismi, O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning sharqiy va jan.sharqiy viloyatlarini o'z ichiga olgan. Poytaxti Balx xisoblanadi. Uning asosiy negizini Baqtriya-Toxariston tashkil etgan. Shu yerdan turib eftaliylar qo'shni mamlakatlarga yurishlar qilganlar. Eftaliylar Sosoniylar Eroni ustidan bir qancha janglarda zafar quchgan, janglardan birida sosoniylar shahanshoi Peroz halok bo'lgan. U ko'p yillar mobaynida eftaliylarga katta miqdorda tovon to'lab kelgan edi.

O'rta Osiyodagi Eftaliylar davlati bir qancha yarim mustaqil mulklarning konfederatsiyasidan iborat bo'lib, ularni eftaliylar podshosiga tobe merosiy sulolalar boshqarar edi. Bu yerda Hindistondagi kabi tanga pullar markazlashgan tartibda zarb qilinmagan, aksincha deyarli har bir mulk o'zining qumush yoki mis tangasini zarb qilgan. Saltanatda bir necha turdagi yozuvlar (sug'd, baqtriy, braxmi va boshqalar)

mavjud bo'lgan, lekin baqtriy yozuvi davlat yozuvi hisoblangan. Eftaliylarning o'zi dastlab ko'chmanchi bo'lib, keyinchalik shaharlarni bosib olishlari bilan, asosan, o'troq hayot tarziga o'tgan bo'lsalar kerak. Shu tufayli Vizantiya tarixchilari (Menandr) eftaliylarning shahar qabilasi sifatida ta'riflaydi. Eftaliylar jamiyatida mulkiy tabaqalanish mavjud edi. Eftaliylar kuchli, asosan, o'tliqlardan iborat qo'shinga ega bo'lgan. Eftaliylar orasida poliandriyaning shakllaridan biri hukm surgan. Eftaliylar o't va quyoshga sig'inishgan, O'rta Osiyodagilar esa — budsaviylik, manixeylik, xristianlik, zardushtiylikka e'tiqod qilishgan; 2) Eftaliylar Hindistonga bostirib kirishi natijasida vujudga kelgan. Shim. Hindiston, Pokiston va jan.sharqiy Afg'oniston hududidan iborat bo'lgan. . Hindistondagi Eftaliylar davlati milodiy 5-asroxiri — 6-asrning 1-yarmida, To'ramon va uning vorisi Mixirakula davrida kuchqudratga to'lib, ravnaq topgan. 6-asr o'rtalariga kelib tanazzulga yuz tutgan.

2. Mahmud G'aznaviy haqida ma'lumot bering.

Mahmud G'aznaviy davrida (997–1030) esa uning hududi kengayib, Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan. Somoniylar sulolasi barham topgach, Mahmud G'aznaviy Xuroson hududlarini, so'ng Xorazm davlatini (1017) ham o'z saltanatiga qo'shib olgan.

3. “Dukchi” atamasiga izoh bering.

Dukchi (forscha yig, duk) — charxning yigirilayotgan ip o'ralibboriladigan qismi. Duk yasovchi hunarmand dukchi deyilgan.

20-BILET

1. Amir Temur davlati.

Amir Temur, Temur, Temurbek (to'liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul) (1336-yil, 9-aprel, Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xoja Ilg'or qishlog'i (hozirgi Yakkabog' tumani) — 1405-yil, 18-fevral, O'tror sh., Samarqandda dafn etilgan) — o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi. uning zakovati juda ham kuchli edi. U o'ng qo'lda ham chap qo'lda ham bir xil qilichini o'ynatar edi.

Temur davlati va unga qaram yerlarning mustahkamlanishi

Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mavqeyini mustahkamlab, ko'pdan davom etib kelayotgan ichki tarqoqlikka barham berish, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish

maqsadida Amir Temur (1370 y. iyunida) Samarqandda katta qurultoy chaqirdi. Unda markaziy davlat tizimini shakllantirish va qo‘shin tuzish masalalari muhokama etildi.

El-yurtni boshqarishda harbiy kuchning ahamiyatini yaxshi tushungan Amir Temur qo‘shinning tuzilishiga katta ahamiyat berdi. U "amir" va "amir ul-umaro" kabi yuqori darajali harbiy unvonlar joriy qildi. Qo‘shinni harbiy jihatdan isloh qilar ekan, u ayniqsa lashkarboshilarni tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda intizom masalalariga nihoyatda e‘tibor beradi (yana q. Temuriylar harbiy san‘ati).

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, dastlabki vaqtlardayoq mamlakatda ro‘y bergan og‘ir iqtisodiy tanglikni bartaraf qilish uchun eng avvalo soliq tizimini tartibga soldi. Davlat soliqlarini yig‘ishda aminlar, kalontarlar va soliq yig‘uvchilarni ra‘iyatga nisbatan insof va adolatli bo‘lishga, qonunga xilof ish tutmaslikka chaqirdi, chunki saltanatning barqarorligi ko‘p jihatdan ra‘iyatning hol-ahvoli, uning davlat va davlat boshlig‘iga bo‘lgan sadoqatiga bog‘liq. Ra‘iyatni himoya qilish qonun bilan mustahkamlangan, qonun barchaga barobar bo‘lgan. Amir Temur nafaqat o‘z xalqini, balki zabt etilgan mamlakatlarning aholisini ham imkoni boricha qonun himoyasiga olgan. Ularni asirlik va talon-tarojlardan saqlagan.

2. Yustinian I haqida ma‘lumot bering.

Yustinian I davrida Konstantinopolda barpo etilgan Avliyo Sofiya ibodatxonasini hech shubhasiz ilk o‘rta asrlaming eng mahobatli me‘morchilik inshooti deb atash mumkin. Uning ulkan gumbazi (diametri 31,5 m) bo‘lib. 40 ta deraza gulchambari bilan qurshalgan. Osmon gumbazi kabi ushbu gumbaz goho havoda muallaq turgandek tuyuladi. Turli xil toshlar va ovna parchalaridan yasalgan juda ajoyib mozaikalar ibodatxona devorlarini bezagan.

3. “Delegat” atamasiga izoh bering.

Delegat (lotincha — yuborgan) — biror tashkilot, jamoa tomonidan vakolatli qilib saylab yoki tayinlab yuborilgan vakil.

21-BILET

1. Avstriya-Vengriya imperiyasi.

Avstriya-Vengriya imperiyasi – Avstriya va Vengriyaning hukmron sinflari o‘rtasidagi bitim asosida 1867 yilda Avstriya imperiyasini qayta tuzish natijasida tashkil topgan dualistik (birlashgan ikki davlatli) monarxiya. Bu monarxiya: Avstriya (Sis-leytaniya) va Vengriya qirolligi (Transleytaniya)dan tashkil topdi. Avstriya tarkibiga Chexiya, Moraviya, Galitsiya, Bukovina va boshqa yerlar, Vengriya qirolligiga Slovakiya, Xorvatiya, Transilvaniya va boshqa yerlar kirdi. O‘sha yili yangi konstitu-siya qabul qilindi. Avstriya-Vengriya imperiyasi hokimiyatini Avstriya imperatori boshqardi (u Ven-griya qiroli degan unvonga ham ega edi). Imperator hokimiyati rasman Avstriyada reyxstag, Vengriyada seym

tomonidan che-klandi. Butun imperiya bo'yicha uch minis-trlik: 1) tashqi ishlar; 2) harbiy va dengiz; 3) moliya ministrliklari tashkil etildi. Harbiy va dengiz hamda moliya ministrliklari imperiyaning har ikki qismida ham mavjud edi. Boshqa minis-trliklar Avstriyada ham, Vengriyada ham mustaqil ish yuritgan. 1867 yil bitimiga binoan, Vengriya o'z parlamentiga, ministrliklariga, siyosiy va ma'muriy muxtoriyatga ega bo'ldi. Birinchi jahon urushida Avstriya-Vengriya imperiyasining mag'lubiyati va milliy ozodlik kurashlari natijasida 1918 yilning oxirida Avstriya-Vengriya imperiyasi parchalanib ketdi. Avstriya-Vengriya imperiyasi o'rnida Avstriya, Vengriya, Chexoslo-vakiya davlatlari tuzildi, hududning bir qismi esa Yugoslaviya, Ruminiya va Polsha tarkibiga kiritildi.

2. Abulg'oziy Bahodirxon haqida ma'lumot bering.

1644-yilda Abulg'oziy Bahodirxon Xiva xonligi taxtini egallaydi. Abulg'oziy Bahodirxon qabila boshliqlari nufuzini yanada oshirish yo'li bilan ulaming markaziy hokimiyatga qarshi xattiharakatlariga barham bermoqchi bo'ldi. U xonlikdagi barcha 32 qabilani to'rt guruhga bo'ldi: qiyot-qo'ng'iroq, uyg'urnayman, qang'li-qipchoq, nukus-mang'it. Bunda qabilalarning urfodatlari, turmush tarzi va qarindoshlik aloqalari hamda joylashgan yeri hisobga olindi. Har bir qabilaviy guruhga inoq tayinlanib, xon inoqlar orqali qabilalarga tegishli masalalami hal qilgan. Inoqlar xonning eng yaqin maslahatchisi sifatida saroyda istiqomat qilganlar.

3. "Manifest" atamasiga izoh bering.

Manifest(lot)-hukumatning juda muhim voqea munosabati bilan xalqqa qilgan yozma murojati

22-BILET

I. AQSH ning tashkil topishi.

Mustamlakalarda o'z tarafdorlarini ko'paytirish, qo'zg'olonchilar o'rtasida ixtilof chiqarish va ularning kuchlarini zaiflashtirish uchun inglizlar ig'vo qilish va pora berib o'ziga og'dirib olish usulini ishga soldilar. 1775 yilning oxirlarida 20 mingga yaqin royalistlar metropoliya tomonida turib urishdilar. Royalistlarning qurolli kurashga o'tishi va ko'pgina ruhoniylarning inqilobga qarshi tashviqoti avj oldirib yuborilganligi tufayli kongres 1776 yil 2 yanvarda ular ustidan nazorat qilishni mahalliy ma'murlar zimmasiga topshirishdi. Shundan so'ng ularni qurolsizlantirish (1776 yil mart) va mol mulkini musodara qilish (1777 yil noyabr) to'g'risida qaror qabul qilindi.

Mamlakatning deyarli hamma joylarida tuzilgan xafsizlik komitetlari bu qaror chiqishidan ilgariyoq royalistlarni qamoqqa olib, mol mulklarini musodara qila boshlagan edilar.

Kongress singari kontinental armiya ham, payt poylash va mudofaa taktikasini qo'llayotgan edi. To'g'ri, Kanadani bosib olishga urinib ko'rildi, bu esa mustamlaka burjuaziyasinig

eng muhim siyosiy va strategik vazifasi edi. Biroq bu urinish to'la muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. 1776 yilning boshlarida Vashington, uning sustkashligidan juda ko'p norziliklar tug'ilganligi tufayli Bostonni olishga tayyorgarlik ko'rish boshlandi. Bostonni qamal qilish uchun armiyaning barcha asosiy kuchlari bir joyga to'plandi va ingliz qo'shinlari Dorchester tepaliklarini qo'lga kiritish yo'lidagi urinishlarni muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqqanidan keyin 17 martda Bostonni tashlab chiqib ketdilar. Ingliz kemalariga qarshi qo'zg'olonchilarning qurolli qismlari jang qildilar, qo'lga tushirilgan qurollar va kiyim kechaklar qo'zg'olonchilar armiyasini ta'minlanishiga sarf qilinar edi. Mustamlaka qo'shinlari yomon qurollangan, arteleriya oz, ko'pincha eng zarur kiyim va oziq-ovqatlar etishmas edi. Sanoat urush talablariga tezda moslasha olmasa ham, lekin urushning borishida ancha yutuqlarga erishdi. Qishloq xo'jaligiga urush juda kam ta'sir qildi. Shunday bo'lsada ko'p joylarda ayniqsa, shaharlarda va janubiy mustamlakalarda qo'shinlar va xalq ochlikdan azob chekayotgan edi. Narxlarning oshib va chayqovchilikning misli ko'rilmagan darajada kuchayib ketganligi natijasida mehnatkashlar ommasining ahvoli og'ir edi. Burjuaziya va yirik er egalari iborat vatanparvarlar Amerika qog'oz pulidan ingliz tillasini afzal ko'rar, Amerika aholisi ochlikdan halok bo'layotgan bir paytda ingliz qo'shinlarini ta'min qilar edi. Vashingtonning o'zi 1775 yilda bunday degan edi: Fuqarolik burchini, odamgarchilikni bu qadar unutib yuborish, bu qadar chayqovchilik, foyda olish uchun bu qadar hiyla ishlatish hollarini ... men hech qachon ko'rgan emasman.

2. Amir Umarxon haqida ma'lumot bering.

Amir Umarxon davridagi yirik shoirlardan biri Mahmud (asl ismi Mahmud) XVIII asr oxirida tug'ilib, 1444-yili vafot etgan. Qo'qondagi madrosayi Mirda o'qigan, keyin qo'shinda sipohlik qigan. Mahmurning hajviy she'rlar devoni saqlangan bo'lib unda oltmish to'qqiz asar (3717) misra jamlangan hajviy asarlarida xalqqa jabr yetkazgan keskin taqid ostiga olgan. Xususan, —hapalak she'rlarida hapalak qishlog'ining ayanchli manzaralari aks ettirilgan.

3. "Chorizm" atamasiga izoh bering.

Chorizm – chor Rossiyasi tomonidan Markaziy Osiyoga bostirib kirgan 1850 yillardan 1920 yillargacha bo'lgan davrning nomlanishi.

23-BILET

1. Qo'qon xonligi.

Qo'qon xonligi - o'zbek xonliklaridan biri (18–19-asrlar). Poytaxti – Qo'qon. O'zbeklarning minglar urug'idan bo'lgan Shohruxbiy 1709 yilda asos solgan. Bu davlat tarkibiga dastlab Qo'qon, Namangan. Marg'ilon, Konibodom, isfara va ularning atrofidagi qishloqlar kirgan. Abdurahimbiy davrida Buxoro xonligiga harbiy yurish qilinib Samarqand egallanadi (1732). Abdulkarimbiy davrida 1746 yil qalmoqlar Farg'ona vodiysiga hujum qilib, O'sh, Andijon, Marg'ilon shaharlarini egallab, Qo'qonni qamal qilgan. Qo'qonliklar yordamga kelgan O'ratepa hokimi Fozilbiy qo'shinlari bilan birgalikda ularni Farg'ona

vodiysidan quvib chiqarishgan. Norbo‘tabiy davrida Chust va Namangan beklarining mustaqillik uchun ko‘targan g‘alayonlari bostirilgan. Mamlakatda sug‘orish inshootlari barpo qilinadi, savdo va hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi birmuncha rivoj topadi va nisbatan arzonchilik bo‘ladi.

2. Boburiylar sulolasidan bo‘lgan Shoh Jahonning Hindiston tarixidagi tutgan o‘rni haqida fikr bildiring.

ShohJahon (1592.5.1, Lohur 1666.22.1, Agra) — Boburiylar saltanati hukmdori (1627—58), Jahongirshohning 3-o‘g‘li. Asl ismi Xurram. 1616 yil

Dekan (to‘g‘rirog‘i — Dakan)dagi g‘alabasidan so‘ng Sh.J.nomini olgan. 1622— 25 yillar otasi Jahongirshohga qarshi urushib, yengilgan. 1627 yilda taxt uchun kurashlarda g‘olib bo‘lib, "Abul Muzaffar Shahobiddin Muhammad Sohibqironi Soniy" taxallusini olgan. Taxtga o‘tirgan zahoti bir qancha isyonlarni bostirishga majbur bo‘lgan. Sh.J. poytaxtni Agradan Dehliga ko‘chirgan. Bu davrda adabiyot, san‘at, musiqa va boshqalar fanlar rivoj topgan. Sh.J. bir qancha muhtasham obidalarni bunyod ettirgan — Agrada Tojmahal, Qizil qal‘a, Dehlida Jome masjid, Lohurda Shalimar bog‘i va boshqalar Sh.J. davrida Boburiylar saltanati tanazzulga yuz tuta boshlagan. 1630—33 yillarda Gujarat va Dekanda qattiq qurg‘oqchilik tufayli ocharchilik bo‘lgan, xalqning ahvoli og‘irlashgan, shuning uchun Sh.J. mazkur o‘lkalardagi yer solig‘ini kamaytirgan. Sh.J. davrida Yevropa savdo kompaniyalarining Boburiylar davlatiga suqilib kirishi kuchaygan, Shu kezlarda uning o‘tillari o‘rtasida taxt uchun kurash avj olgan. Bu kurashda katta o‘g‘li Avrangzeb g‘olib kelib, taxtni egallagan. Sh.J. Tojmahal maqbarasida xotini Mumtoz Mahal yoniga dafn etilgan.

3. "Kommuna" atamasiga izoh bering.

Kommuna (frans. commune, lot. communis — umumiy) — 1) o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada shahar Kommunasi — feodallardan o‘z-o‘zini boshqarish huquqlarini olishga erishgan jamoa; 2) hozirgi bir necha xorijiy davlatlarda — quyi ma‘muriy hududiy birlikning nomi.

24-BILET

1. Xiva xonligi

Xiva xonligi — o‘zbek davlatchiligi tarixi bosqichlaridagi O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan uchta o‘zbek xonliklaridan biri (1512—1920 yillarda). Poytaxti — Vazir, Ko‘hna Urganch, 16-asrning 70-yillaridan boshlab — Xiva shahri.

Temuriylar tasarrufida bo‘lgan Xorazm hududini Shayboniyxon 1505 yilda bosib olgan. Shayboniyxon vafoti (1510 yil) dan keyin Xorazm Eron safaviylari qo‘l ostiga o‘tdi. Ularga qarshi xalq qo‘zg‘oloni bo‘lib, unga Vazir qal‘asi qozisi Umar va Baqirg‘on qishlog‘idan mulla Sayd Hisomiddin boshchilik qildi. Ikki yil davom etgan kurashlar natijasida eroniylar mamlakatdan quvib chiqarilgan va xorazmliklar taklifi

bilan 1511 yilda Vazir shahrini egallagan shayboniylardan Elbarsxon Xorazm hukmdori deb tan olingan.

2. Oliver Kromvelning Angliya ta'rixidagi o'rnini haqida fikr bildiring

KROMVEL (Cromwell) Oliver (1599—1658) — 17-asrdagi ingliz inqilobi arbobi, independentlar rahbari. 1640 yil Muddatsiz parlament (Qonun chiqaruvchi organ)ga saylangan. 1 – (1642-46) va 2–(1648) fuqarolar urushida qiroli armiyasi ustidan g'alaba qozongan parlament armiyasining asosiy rahbarlaridan biri. Kromvel armiyaga tayanib presviterianlarni parlamentdan haydagan (1648); qirolni qatl etish va respublika e'lon qilinishiga ko'maqlashgan (1649), natijada hokimiyat Kromvel tarafdorlari qo'lida to'plangan. 1640 yildan lord-general (barcha harbiy kuchlar bosh qo'mondoni). Irlandiya va Shotlandiyada ozodlik harakatlarini, levellerlar va diggerdar harakatini bostirgan, Kromvel 1653 yil parlamentni tarqatib, yakka shaxs harbiy diktatura rejimi — protektorat o'rnatgan.

3. "Diktatura" atamasiga izoh bering.

Diktatura (lotincha-cheklanmagan hokimiyat) - hech qanday qonun bilan cheklanmagan, zo'rlikka tayanuvchi hokimiyat.

25-BILET

1. Prussiya qirolligi haqida ma'lumot bering.

Prussiya (Preußen) — davlat, so'ngra Germaniyadagi yer (federativ ma'muriy birlik; 1945 yilgacha). P.ning asosiy tarixiy o'zagi — Brandenburg 1618 yil Prussiya gersogligi (Tevton ordeni tomonidan 1525 yil bosib olingan prus yerlarining bir kismida vujudga kelgan) bilan birlashgan. Brandenburg-Prussiya davlati 1701 yil Prussiya qirolligiga aylangan (poytaxti — Berlin shahri).

Prussiyaning iqtisodiy va siyosiy hayotida yunkerlar rahbarlik rolini o'ynaganlar.

Gogensol-lernlar sulolasidan chiqqan Prussiya qirollari (Fridrix II va boshqalar) XVII asr XIX asrning I yarmida davlat hududini sezilarli darajada kengaytirgan. 1871 yil prus yunkerlari Bismark boshchiligida "Temir va kon" bilan Germaniyani prus-militaristik asosda birlashtirilishini yakunlashgan; Prussiya qiroli ayni vaqtda Germaniya imperatori bo'lgan. Germaniyadagi 1918 yil noyabr inqilobi natijasida Prussiyadagi monarxiya barham topgan. Prussiya Germaniya yerlaridan biriga aylangan. Ikkinchi jahon urushida fashistik Germaniya tormor keltirilgach, Prussiya hududi ayrim yerlarga taqsimlangan (1945); 1947 yil Germaniyadagi Kontrol kengashi Prussiya davlatini militarizm va reaksiya ning beshigi sifatida yo'q kilinganligi haqida qonun qabul qilgan.

2. Boburiylar sulolasidan bo'lgan Akbarshohning Hindiston tarixidagi o'rnini haqida fikr bildiring.

Imperiya Akbarshoh davrida. Boburiylar sulolasi hukmdorlari ichida «Buyuk

Akbar» degan unvonga sazovor bo'lgan Humoyunning o'g'li Akbarshoh 1556- yilda otasi taxtini egalladi. Akbarshoh hamisha uzoqnira'zlab siyosat yuritdi. Shu tufayli u Hindistonda o'z hukmronligini to'la va uzil-kesil o'rnatildi. Shuning uchun ham uni Hindistondagi Boburiy hukmdorlar ichida eng ulug'i - «Buyuk Akbar» deb atashgan. Akbar Hindiston tarixidagina emas, balki jahon tarixida ham eng buyukshohdir. Agar yevropalik hukmdorlar bilan taqqoslanadigan bo'lsa, Akbar ulug'vorlikda ham, omadbarorlikda ham ulardan ustun turadi. Ishvari Prasad, hind tarixchi limi. Akbarshoh bunday buyuklikka osonlikcha erishgan emas. Uning asosiy raqibi Hindistondagi afg'on qabilalari yetakchilari edi. Akbarshoh qo'shini 1556- yilda afg'on qabilalari qo'shinini tor-mor etdi. 1559-yilga kelib taxt uchun boburiylarga qarshi kurashning yetakchi kuchlari - afg'onlarning Sursulolasi butunlay yanchib tashlandi. Akbarshohning hukmronlik yillari imperiyaning oltin davri bo'lgan. Akbarshoh zukko davlat arbobi, mohir sarkarda bo'lishi bilan bir qatorda, itoatkor og'il, g'amxo'r ota ham edi. Qo'l ostidagi xalqlarning turmush farovonligi doimo uning e'tiborida turgan. Kambag'al, beva-bechoralarga muntazam moddiy yordam ko'rsatgan. Akbarshoh falsafa, din, adabiyot va tarix ilmini yaxshi egallagan. U boshqa din vakillariga nisbatan hamadolatli siyosat yuritgan. Akbarshoh musulmon bo'lmaganlardan undiriladigan «jizya» solig'inibekor qilgan. Hindlarning ziyoratgohlaridan olinadigan soliqni man etgan. Imperiya hududidayagona savdo solig'i joriy etilgan. Ham xolisa, ham jogirdorlar yerlaridan teng miqdorda soliq undirilgan. Davlat idoralariidagi lavozimlar, dini va mazhabidan qat'i nazar, shaxsning salohiyatiga qarab

taqsimlangan. Akbarshoh barcha fuqarolarga din erkinligi bergan. Bir so'z bilan aytganda, Akbarshoh hindlar bilan musulmonlarning yonma-yon, tinchtotuvyashashlariga erishgan. Akbarshoh yuritgan bunday adolatli siyosat boburiylar davlatining ulkan imperiyaga aylanishida, uning mahalliy aholi va amaldorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishida katta rol o'ynadi. Bu esa, o'z navbatida, imperiyaning qudrati vashon-shuhratining yanada ortishiga xizmat qilgan. Akbarshoh Hindistonda yuritgan adolatli siyosati evaziga «Milliy podshoh», «Xalq hukmdori» nomlariga ham sazovor bo'lgan. Akbarshoh 1605-yilda vafot etgan.

3. “Kapital” atamasiga izoh bering.

Kapital - o'z egasiga daromad keltiruvchi xususiy mulk (fabrika, zavod va boshqalar) o'z-o'zini ko'paytiruvchi sarmoyadir.

26-BILET

1. Vizantiya imperiyasi.

Vizantiya (Vizantiya imperiyasi) — Rim imperiyasi parchalangach, uning iqtisodiy jihatdan rivojlangan sharqiy qismida vujudga kelgan davlat (4—15-asrlar). Eng ravnaq topgan davrida uning tarkibiga Bolqon ya.o.ning katta qismi, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Misr, Kirenaika, Mesopotamiyaning bir qismi, Gʻarbiy Armaniston va Gurjiston, Xersones, Qibris va Krit o.lari kirgan. Poytaxti — Konstantinopol sh. boʻlgan. Mamlakatning nomi Bosfor sohilidagi yunon polney — Vizantiyizm olingan. Axrlisi — yunonlar, suryoniyalar, qibtiylar, armanlar, gurjlar va boshqa Davlat tili 4—6-asrlarda lotin tili, keyinchalik yunon tili boʻlgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanish darajasi, shahar turmushining joʻshqinligi jihatidan oʻsha davrda V. Gʻarbiy Yevropa mamlakatlaridan ancha ilgari ketan edi. Arabiston, Qora dengiz boʻyi, Eron, Hindiston, Xitoy bilan savdo-sotiq bir oz koʻpaydi. V. geografik jihatdan qulay joylashganligi tufayli Sharq bilan Gʻarb oʻrtasida madaniy-iqtisodiy aloqalarning kuchayishiga sabab boʻldi, siyosiy va harbiy markazga aylandi. Imperator Yustinian I hukmronligi davri (527—565)da maʼmuriy va huquqiy islohotlar oʻtkazildi, markaziy davlat mustahkamlandi, kuchli armiya vujudga keltirildi. Bu esa Yustinianga 533—534 yillarda Shim. Afrikadagi vandallar davlatini, 555 yilda Italiyadagi ostgotlar qirolligini, Jan.-Sharqiy Ispaniyani bosib olish imkonini berdi. 6-asrning soʻnggi oʻn yilligi va 7-asr boshlarida ichki tanazzul va tashqi siyosatda muvaffaqiyatsizliklar roʻy berdi. Armiyada gʻalayon boshlandi, keng xalq ommasi unga qoʻshildi. 6-asr oxiri —7-asr boshlarida V. hududining anchagina qismini slavyanlar ishgʻol etdi. 7-asrning 70-yillarida V.ning shim.gʻarbiy chegarasida qad. bulgʻorlar davlati — Bulgʻoriston barpo boʻldi. 636—642 yillarda arablar V.dan Suriya, Falastin, Yukrri Mesopotamiya va Misrni, 693—698 yillarda Shim. Afrikadagi yerlarni tortib oldi. Italiyadagi langobardlar V. hududining anchagina qismini bosib oldi. 8—9-asrlarda V. hududiga slavyanlar koʻchib kelishi munosabati bilan ulardagi hukmron jamoa munosabatlari taʼsirida erkin qishloq jamoalari mustahkamlandi. Biroq 10-asrda yirik yer egaligi kuchayib, V. shaharlari 7—9-asrlardagi tanazzuldan soʻng yana qad rostladi, savdo-hunarmandchilik uyushmalari vujudga keldi, davlat ularning faoliyatini qoʻllab-quvvatladi.

2. Ismoil I Safaviy haqida maʼlumot bering.

Ismoil I Safaviy (1487.17.7—1524.23.5) - Eron shohi (1502 y.dan), Safaviylar davlati asoschisi, sarkarda, shoir. Qizilboshlilar yordamida Ozarbayjonni (1500—01), Tabrizni (1502) egallab, oʻzini shoh deb eʼlon qilgan. Tez orada Eron, Armaniston, Iroq va Movarounnahrning bir qismini bosib olgan (1503—10). I. I davrida Safaviylar davlati ancha kengaygan. 1512 y. I. I qoʻshinlari Boburga Samarqand taxtini egallashga yordam beradi. Lekin, 1513 y. boshida oʻzbek sultonlari Ubaydulla va Muhammad Temur qoʻshinidan qattiq zarbaga uchradi. Usmonli turklar bilan boʻlgan urushda I. I yengilgach (1514), oʻz qoʻl ostidagi Gʻarbiy Armaniston, Kurdiston va Iroqning bir qismidan ajradi.

Mamlakat iqtisodini rivojlantirishga intilgan; ma'muriy idoralar faoliyatini mustahkamlagan; mustaqil bo'lishga harakat qilgan ko'chmanchi zodagonlar bilan urush olib borgan. Islomning shia mazxabini davlat dini deb e'lon qilgan.

Turkiyzabon she'riyatning rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan.

3. "Rezervatsiya" atamasiga izoh bering.

Rezervatsiya (lotincha — saqlayman) — biror davlatda tub joyaholisining omonqolgan qismini zo'rlab joylashtirish uchun ajratilgan hudud.

27-BILET

1. Buxoro amirligi.

Buxoro amirligi — Buxoro xonligini 1756-yildan keyingi nomi; o'zbek sulolasi ashtarxoniyalar o'rniga kelgan o'zbek mang'itlar sulolasi vakillari o'zlarini amir deb atashgan. Shunga ko'ra, davlat Buxoro Amirligi deb atala boshlangan. 1920-yil Buxoro bosqini natijasida tugatilgan.

1758-yilda Rahimbiy vafotidan so'ng mang'itlar amirlik taxtiga uning amakisi Miyonko'l hokimi Doniyolbiy (1758—1785-yillar) nomzodini surishadi. Lekin u qat'iy markaziy hokimiyatni saqlab qololmadi. Mang'itlarning tarafdorlari va g'animlari o'rtasidagi o'zaro janjallar, joylardagi hokimlarning mustaqillikka bo'lgan intilishlari o'n yillarga cho'zilib ketdi. 1784-yili Doniyorbiyning bo'shligidan norozi bo'lgan Buxoro ahli qo'zg'olon ko'tardi va amir hokimiyatni o'g'li Shohmurodga (1785-1800-yillar) topshirdi.

Amir Said Olimxon (1910—1920) hukmronligi davri

1910-yilda otasi Abdulahad Xon vafot etadi. Taxtga 1910-yilda o'tirdi. O'sha yili Rossiya Imperiyasi Imperatori Nikolay II tomonidan Oliy martabaga ko'tariladi. 1911-yilda Said Olimxonga Hazrati Oliylari Imperator Svitasida general-mayor unvoni beriladi.^[6]

Boshqaruvining boshida u sovg'alar olmasligini, boshqa vazir va boshliqlarga pora olishni man etishini va soliqchilar va boshliqlarni xalqdan olgan soliqni o'z manfaatlarida qo'llamaslikni amr etdi. Biroq vaqt o'tib vaziyat o'zgarib ketdi, ushbu intrigalar oqibatida yangi qonunlar chiqarmoqchi bo'lganlar Moskva va Qozonga yuborildi. Said Olimxon esa boshqaruvini an'anaviy tarzda davom ettirdi.

1913 yil 22-fevralda Sayyid Olimxon Xiva xoni Asfandiyorxon bilan birgalikda Peterburgdagi birinchi jome' masjidining ochilishida ishtirok etdi.

Buxoro amirligi Rossiya Imperiyasiga qaram hisoblansada Said Olimxon o'z davlatida Amir maqomiga ega edi. Said Olimxinning pullariga Sankt-Peterburgda Masjid va Buxoro Amiri Uyi qurildi. 1915-yilning 30-dekabr kuni general-leytenant maqomiga ega bo'ldi va Ter Kazaklari qo'shinida general-adyutant maqomigacha ko'tarildi.

Buxoro amirligining podsho Rossiyasiga tobeligi amir Olimxon zamonida (1910—20) yanada ortdi. Amirlikda yettita rus xususiy banking shu'basi ish olib borardi. Birinchi

jahon urushi boshlanishi bilan amirlik aholisining ahvoli yanada og‘irlashdi. Xuddi shu davrga kelib jadidlik harakati asosida yosh buxoroliklar partiyasi faoliyati kuchaydi. 1917 yil Fevral inqilobi munosabati bilan bu partiya amirlikni podsho Rossiyasi bo‘yinturug‘idan qutqazish, ba’zi islohotlar o‘tkazish ishiga kirishdi. Yosh buxoroliklar rus bolsheviklari bilan hamkorlikda 1918 yil martida amir hukumatini ag‘darishga urindilar. Ammo bu harakat muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1920 yil 2 sentabrda Buxoro bosqini natijasida amirlik tugatildi.

2. Otto fon Bismarkning Yevropa tarixidagi tutgan o‘rni haqida fikr bildiring.

Otto Eduard Leopold Karl-Vilgelm-Ferdinand fon Bismark (nem. Otto Eduard Leopold von Bismarck; 1815-yil 1-aprel — 1898-yil 30-iyul) - «temir kansler» deb atalgan knyaz, siyosatchi, davlat arbobi, German Imperiyasining birinchi kansleri. Prussiya qirolligida Bismark konservatorlar orasida yunkerlar namoyondasi sifatida obro‘ qozongan, diplomat sifatida faoliyat yuritgan

(1851-1862-yillar). 1862-yilda Prussiya hukumatining bosh vaziri etib tayinlangan. Konstitutsion inqiroz vaqtida monarxiyani himoya qilib liberallarga qarshi chiqqan. Tashqi ishlar vaziri sifatida Olmon-Daniya urushidan so‘ng Prussiyani Germaniyadagi yetakchi kuchga aylantirdi.

U Reyxskansler va Prussiya bosh vaziri sifatida 1890-yilgi iste‘fosiga qadar Reyxning siyosatiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. Bismark tashqi siyosatda kuchlar balansini prinsipiga amal qilgan.

3. “Demokratiya” atamasiga izoh bering.

Demokratiya – yunoncha «xalq hokimiyati», har bir fuqaro o‘z mamlakatini boshqarish masalasi bo‘yicha o‘z fikrini bayon etadigan, shuningdek, davlat boshqaruvida ishtirok etadigan ijtimoiy tuzum.

28-BILET

1. Franklar imperiyasi.

Buyuk ko‘chishlar boshlanishiga qadar german qabilalariga mansub franklar Reyn daryosi quyi oqimidagi hududlarda yashaganlar. Franklar gotlar va langobardlar kabi hayvon terisidan emas, matidan kiyim- bosh kiyishgan va soch-soqollarini olib yurishgan. Ularda faqat qirol oilasiga mansub kishilar uzun sochda yurishgan. **Franklar** - Quyi va O‘rta Reyn bo‘ylarida milodiy 3-asrda yashagan qabilalar ittifoqiga birlashgan german qabilalari guruhi (xamavlar, brukterlar, usibetlar, tenkterlar, sugambrlar va boshqalar). Adabiyotlarda 2 guruhga bo‘lingan. 1 guruh (g‘arbiy F.) ning negizini sali (dengiz bo‘yi; keltcha sal — dengiz) F. i tashkil etgan. Ular dastlab Eysel daryosi bo‘ylarida, 4-asr o‘rtalarida esa Reyn daryosi sohillarida yashaganlar. 2 guruh (sohil F.) Reyn daryosining yuqori qismi bo‘ylab Mayngacha bo‘lgan hududda yashagan. Sali F. i 4 a. o‘rtasida rimliklar tomonidan tormor etilgan, biroq federatlar huquqida Toksandriyada krlidirilgan; 451 yil gunnlarga qarshi Katolaun jangit qatnashganlar. 5-asr boshida sali F. i Galliyann Sommagacha egallaganlar.

Frank davlati (5-asr oxiri — 9-asr oʻrtalari) tashkil topgan. Maas va Luara daryolari oraligʻida yashagan F. keyinchalik mahalliy aholi bilan singib ketib, shim. fransuz, shuningdek, vallon elatlari tarkibiga, Luaraning jan. rogʻida yashovchi F. esa, jan. fransuz (provansal) elati tarkibiga kirgan. Reyn daryosining quyi havzasida yashovchi F. gollandlar va flamandlarning etnogenezida katta rol oʻynagan. Reyn daryosining oʻrta oqimi boʻylab va Maas daryosi havzasida yashovchi F. da oʻziga xos etnik xususiyatlar saklanib qolgan. FRANKONIYA (Franken) Germaniyadagi tarixiy viloyat. Ilk oʻrta asrlarda franklar istiqomat qilgan hudud, 9-asr oxiri — 939 yilda Germaniya qirolligining qabilaviy gersogliklaridan biri, keyinchalik bir necha feodal mulklarga parchalanib ketgan. F. nomi faqat Sharqiy F. (Mayn daryosi xavzasi) uchun saklanib krlgan. Uning katta qismi 1803 yilda Bavariya tarkibiga kiritilgan.

2. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman haqida maʼlumot bering.

maʼmuriy hududiy birlik. Rossiya Imperiyasi bosib olgan Gʻarbiy Turkiston hududida Rossiya imperatori Aleksandr II farmoni bilan tashkil etilgan (1867-yil 11-iyul). Xuddi shu yili Turkiston harbiy okrugi ham tuzilgan. Turkistonning birinchi generalgubernatori etib rus podshosining yaqin mulozimi generaladʼyutant K.P.fon Kaufman tayinlandi. U 14 yil mobaynida (1867— 1881-yillarda) Turkiston oʻlkasini qattiqqoʻllik bilan boshqargan. Kavkaz, Boltiqboʻyi oʻlkalaridagi ozodlik harakatlarini bostirishda tajribali maʼmur va usta siyosatchi ekanligini koʻrsatgan fon Kaufmanni "Turkistonning Bunyodkori" deb ulugʻlashgan. U Toshkent jamoatchiligi vakillari yigʻilishi (1868-yil 22-yanvar)da birinchi bor ruslarni Turkiston xalqlarining "Katta Ogʻasi" deb atagan. Turkiston 19-asrning boshlarida Britaniya Imperiyasi va Rossiya Imperiyasi orasida tortishuvlarga sabab boʻlgan.

3. "Ekspansiya" atamasiga izoh bering

Ekspansiya – bir davlatning oʻzga mamlakatlar hududi va bozorini egallab olish maqsadida oʻz siyosiy va iqtisodiy taʼsirini yoyishga qaratilgan siyosati.

29-BILET

1. Baqtriya davlati.

Baqtriya, Baqtriyona, Baxtar zamin Baktriya — Amudaryoning yuqori va oʻrta oqimidagi tarixiy viloyat va davlat.

Asosan hozirgi Oʻzbekiston va Tojikistonning jan. viloyatlari hamda Afgʻonistonning shim. qismini oʻz ichiga olgan. Shim.da Sugʻd, jan.da va jan.-sharqda Araxosiya, Gandhara, gʻarbda Ma-rgʻiyona bilan chegaralangan. Markaziy shahri Baqtra (Zariaspa) boʻlgan. B. miloddan avvalgi 6—4-asrlarda Axomaniylar, Aleksandr (Iskandar), Salavkiylar saltanatlari, soʻngra miloddan avvalgi 3-asr oʻrtasidan Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga

kirgan; miloddan avvalgi 2-asrda toharlar tomonidan bosib olingach, Toxariston deb atala boshlagan.

B.da dastlabki arxeologik tadqiqotlar 19-asrning 2-yarmidan boshlangan. Shim. B. hududida 1926 — 28 y.larda Sharq madaniyati muzeyi (hozirgi Sharqxalqlari san'ati muzeyi) ekspeditsiyasi (rahbari B. P. Denike). 1936 — 38 y.larda Termiz arxeologiya-kompleks ekspeditsiyasi (rahbari M. Ye. Massoy), 1953 — 54 y.larda Tojikiston arxeologiya ekspeditsiyasi (rahbari M. M. Dyakonov), 1950 — 55 y.lari O'zbekiston arxeologiya ekspeditsiyasining Surxondaryo otryadi (rahbari L. I. Albaum) arxeologik kazish ishlari olib borgan. 1960 y.dan (bir oz tanaffus bilan) O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi (rahbari G. A. Pugachenkova), 1972 y.dan O'zbekiston FA Arxeologiya institutining Baqtriya ekspeditsiyasi (rahbari V. M. Massoy) arxeologik tadqiqotlarni davom ettirdi. Jan. B. hududi (Shim. Afg'oniston)da fransuz arxeologlari — R. Girshman (1936 - 41), D. Shlumberge (1945 - 64), P. Bernar (1964 — 78), shuningdek sobiq Ittifoq-Afgon ekspeditsiyasi (1970 — 78; I. T. Krutikova, V. I. Sarianidi, G. A. Pugachenkova, R. Sulaymonov, Sh. Pidayev, Z. Hakimov, V. N. Yagodin va boshqalar) qazish ishlari olib borgan.

Avesto, Bihistun kitobalari, Nakshi Rustamdagi kitobalar hamda qad. B. O'zbekistonda dehqonchilik madaniyati taraqqiy etgan va ilk davlat tuzumi vujudga kslgan qad. markazlardan biri. Bu yerda miloddan avvalgi 2 ming yillikniig 1-yarmidayoq o'troq dehqonchilik madaniyati mavjud bo'lganligi arxeologik materiallar bilan isbotlangan. B.ning o'tmishda "Ming bir shahar mamlakati" deb atalganligi unda shaharlarning ko'p bo'lganligidan guvoxlik beradi. Surxoidaryoning jan. tumanlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida ko'plab shahar harobalari topilgan (qarang Ayritom, Dalvarzintepa, Termiz, Xolchayon va boshqalar).

2. Periklning davlat boshqaruvi haqida ma'lumot bering.

Mil. avv. 443–429-yillarda 15 marotaba strateg lavozimiga saylangan Perikl hukmronligi davrida Afi na eng qudratli davlatga aylandi va mamlakatda demokratiya ravnaq topdi. Bu davr shuning uchun ham «Perikl asri» deb atalgan. Ajoyib yunon yozuvchilari, olimlari va rassomlari Periklning do'stlari bo'lishgan.

Perikl tarixchi Gerodot, haykaltarosh Fidiy bilan do'st tutingan edi. Perikl Xalq majlisi dagi lavozimlarga ish haqi to'lashni joriy qildi. Perikl hukmronligi davrida Afi nada katta qurilish ishlari amalga oshirildi. U Akropolda qurilgan mashhur inshoot Parfenon – iloha Afi na ibodatxonasining tashabbuskori bo'lgan. Periklning faoliyati badavlat shaharliklarga yoqmasdi. U zodagonlarning hamlalarini qaytarib turgan. Perikl vafot etganidan keyin u joriy etgan ko'pgina qonunlar bekor qilingan.

3. "Koalitsiya" atamasiga izoh bering.

Koalitsiya (lotincha — birlashgan) — bir yoki bir qancha davlatlarga qarshi birlashib harakat qilish uchun ikki yoki undan ko'p davlatlarning tuzgan vaqtinchalik harbiy-siyosiy ittifoqi.

30-BILET

1. Kiyev Rus davlati.

Qadimgi Kiev Rusi davlati

Ilk feodal Rus davlatining tashkil topishi va rivojlanishi. IX-XI asrlarda Rus davlatining tashkil topishidagi shart-sharoitlar. Norman nazariyasi. Sharqiy slavyan qabilalarining Kiev knyazligiga birlashtirilishi. Rus davlatining qo'shni slavyan davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari.

Qadimgi rus davlati, Kiyev Rusi — o'rta asrlarda Sharqiy Yevropadagi davlat. 9-asrning so'nggi choragida Ryurikovichlar sulolasi knyazlari hukmronligi ostida sharqiy slavyanlarning 2 asosiy markazi — Novgorod va Kiyev, shuningdek, "varyaglardan greklarga" savdo yo'li bo'ylab joylashgan yerlarni (Eski Ladoga, Gnyozdovo va boshqalar atrofidagi qishloqlar) birlashtirilishi natijasida vujudga kelgan. 882 yil knyaz Oleg Kiyevni bosib olib uni davlat poytaxti qilgan. 988—89 yillarda Vladimir I Svyatoslavich xristianlikni davlat dini sifatida joriy etgan. Shaharlarda (Kiyev, Novgorod, Ladoga, Beloozero, Rostov, Suzdal, Pskov, Polotsk va boshqalar) hunarmandchilik va savdo rivojlangan; me'moriy va yozma obidalar yaratilgan. Janubiy va g'arbiy slavyanlar, Vizantiya, G'arbiy va Shim. Yevropa, Kavkaz, O'rta Osiyo bilan aloqalar o'rnatilib, ular yanada mustahkamlangan.

Qad. Rus knyazlari ko'chmanchilarning (bijanaklar, torqlar, polovetslar) bosqinlarini daf qilganlar. Yaroslav Mudriy hukmronligi (1019—54) — davlatning eng ravnaq topgan davri. Ijtimoiy munosabatlar qadimiy rus huquqi to'plami — Rus haqiqati va boshqalar huquqiy hujjatlar orqali tartibga solingan. 11-asrning 2-yarmida knyazlarning o'zaro nizolari va polovetslarning bosqinlari davlatni zaiflashtirgan. Qadimgi rus davlatining yaxlitligini saqlash yo'lida knyazlar Vladimir II Monomax (1113 —25) va uning o'g'li Mstislav (1125—32) ko'p harakat qilganlar. 12-asrning 2-choragida davlat parchalanib, bir necha mustaqil knyazliklar, Novgorod va Pskov respublikalariga bo'linib ketgan.

2. Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari haqida ayting.

Aleksandr miloddan avvalgi 336-yilda Makedoniyapodshosi bo'ladi. Shu yili u 20 yoshga to'lgan edi. Makedoniyalik Aleksandr g'ayrioddiy kuchg'ayratva jasurlik sohibi bo'lgan. Safdoshlari vaqo'shinlari unga nihoyatda sadoqatli edi. Mil. avv. 334-yilda u Sharqqa yurishboshladi, bu yurish 10 yil davom etdi. Anashu yurish davomida u Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron va Hindistonda katta-katta hududlarni bosiboladi. Makedoniyalik Aleksandr ulkan hududda o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida bosib olingan shaharlarga yunonlarni joylashtirdi.

Mil. avv. 330-yilda Makedoniyalik Aleksandr Qadimgi Fors davlatining Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan oxirgi shoh Doro IIIning qo'shinlarini tor-mor keltirdi. U Hindistonga yurish qilishdan oldin qo'shinlariningorqa tomonini xavfsizlantirish maqsadidaAmudar yoning narigi tomonida yashovchielatlarni bo'ysundirishga qaror qildi.Birinchi bo'lib uning yo'lini to'sgan shahar Baqtriya poytaxti Baqtra (Zariasp) bo'ldi.Bu vaqtda ahamoniylar sulolasining vakiliBess Baqtriyaning satrapi bo'lgan. U Baqtrashahrini dushmanga qoldirib, Amudaryoningnarigi tarafi ga qochib ketadi. MakedoniyalikAleksandr o'z ustozi, qadimgi yunon faylasufi Aristotelning Amudaryodan ikki podsho– Kir II va Doro I kechib o'tgani, ikkalasi hammag'lubiyatga uchragani, shu bois u yurishgayaxshi tayyorgarlik ko'rishi lozimligi to'g'risidagi maslahatini yodda tutar edi.

3. “Rabot” atamasiga izoh bering.

Rabot-safardagi yo'lovchilar to'xtab o'tish joyi.

